

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТЫ ★ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

XAVFSIZLIKNING ISHONCHLI KAFOLATI

Bugungi kunda mulk daxlsizligini ta'minlash, fuqarolarning osoyishta hayotini muhofaza qilishda ichki ishlar organlari huzuridagi Qo'riqlash bo'limlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar tobora takomillashib, o'zining yuqori samaradorligi bilan ajralib turibdi. Ushbu tizim zamonaviy yondashuvlar, texnik vositalar va tezkor boshqaruv mexanizmlari asosida yo'lga qo'yilgani bois nafaqat sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarining oldini olish, balki jamiyatda xavfsizlik muhitini mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. Eng muhimi, qo'riqlash xizmati orqali fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining mol-mulklarini ishonchli muhofaza qilishga erishilayotgani tizimga bo'lgan ishonchni yanada oshirmoqda.



Navbatchilik qismi navbatchi yordamchisi, serjant Ma'ruffjon Mo'ydinov.



Psixolog, kapitan Abrorbek Mavlonov yoshlar bilan uchrashuv chog'ida.

Qo'riqlash xizmati

XAVFSIZLIKNING
ISHONCHLI KAFOLATI(Davomi. Boshlanishi
1-betda.)

Andijon viloyatida ham bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar o'zining aniq natijalari bilan e'tiborni tortadi. Ayniqsa, aholi o'rtasida qo'riqlash xizmatlarining afzalliklari, uning xavfsizlikni ta'min-

Shu bilan birga, qo'riqlash xizmati tomonidan olib borilayotgan profilaktika ishlari ham o'z samarasini bermoqda. Ya'ni, faqat sodir etilgan huquqbuzarliklarga munosabat bildirish emas, balki ularning oldini olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, 2025-yil davomida

natijasi bo'lsa, 2026-yilning birinchi choragidayoq 882 ta ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilgani profilaktika va nazorat tadbirlari yanada kuchaytirilganini ko'rsatadi.

Qo'riqlash xizmati faoliyatining yana bir muhim jihati aholi bilan yaqin hamkorlikda ish olib borilayotganidir. Tushuntirish ishlari, profilaktik uchrashuvlar, tadbirkorlar va xonadon egalari bilan muloqotlar orqali mulkni qo'riqlashning ahamiyati keng targ'ib etilmoqda. Natijada fuqarolarda o'z mulkiga nisbatan mas'uliyat hissi ortib, uni ishonchli muhofaza qilishga bo'lgan ehtiyoj tobora kuchaymoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugun qo'riqlash xizmati jamiyat xavfsizligini ta'minlashda eng muhim bo'g'inlardan biriga aylandi. U nafaqat mol-mulklarning daxlsizligini ta'minlaydi, balki fuqarolarning tinch va osoyishta hayoti uchun mustahkam kafolat bo'lib xizmat qilmoqda. Shu ma'noda, qo'riqlash tizimi xalqning eng ishonchli suyanchi sifatida o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.



Kadrlar bilan ta'minlash bo'limi katta inspektori, safdori Diyora Mirzaxalilova monitoring bo'limi navbatchi xodimi, kichik serjant Nosirjon Nuriddinov bilan galdagi vazifalar muhokamasi jarayonida.

lashdagi o'rni keng tushuntirib borilayotgani natijasida qo'riqlashga olingan obyekt va xonadonlar soni yildan-yilga oshib bormoqda. Bu esa tizimga bo'lgan ishonchning mustahkamlanib borayotganini anglatadi.

– Agar 2025-yil holatiga ko'ra, viloyatda 9021 ta obyekt qo'riqlashda bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 15141 taga yetdi, – deydi qo'riqlash xizmati Axborot guruhi bosh mutaxassisi, kapitan Muslimbek Ergashev. – Bunday o'sish oddiy raqam emas, balki har bir xonadon va obyekt ortida insonlar xotirjamligi, tadbirkorlar faoliyatining barqarorligi, mulkning ishonchli himoyasi mujassam ekanini anglatadi.

tegishli moddalar bo'yicha 347 ta huquqbuzarlik holatining oldi olingani bu boradagi tizimli ishlarning



Raqamli texnologiyalarni joriy qilish bo'linmasi boshlig'i, mayor Jahongir Maziparov qo'riqlashdagi obyektlarning muhim jihatlari xususida fikr bildirmoqda.

ТАЙИНЛАНДИ

Подполковник

РЎЗИЕВ
Хуршидбек
ХасановичИИБ Бирлашган
тахририяти
бош муҳаррири
лавозимига

Xorazm viloyati

AYOL QALBI MEHR
VA HIMOYA BILAN
YASHNAYDI

Ayol oilaning yuragi, mehr manbai, eng nozik, ammo eng mustahkam ustunidir. Bugungi kunda ayolning huquqlarini himoya qilish, uning xavfsizligini ta'minlash masalasi nafaqat ijtimoiy, balki insoniy burchga aylangan. Bu borada Hazorasp tumanida amalga oshirilayotgan ishlar e'tiborga loyiq. So'nggi besh yil davomida hududda xotin-

pashsha Qurbonova. Uning so'zlarida oddiy haqiqat yashiringan: ayolni eshitish – uni himoya qilishning birinchi qadami.

– Ba'zan bitta yaxshi so'z yoki kichik e'tibor ham og'ir muammoni yengillashtiradi, – deya davom etdi u. – Biz shoshilmaymiz. Har bir holatni avval tinglaymiz, keyin tahlil qilamiz. Chunki shoshqaloqlik ko'pincha yangi



qizlar bilan bog'liq 300 dan ortiq targ'ibot uchrashuvlari tashkil etilgan. 46 ta mahallada muntazam muloqotlar yo'lga qo'yilib, har bir uchrashuv oddiy yig'ilish emas, balki hayotiy muammolarga yechim topiladigan ochiq maydonga aylangan. Ichki ishlar organlari xodimlari bu yerda har bir murojaatga rasmiy hujjat sifatida emas, balki inson taqdiri sifatida yondashmoqda.

– Aslida har bir ayol o'zini xavfsiz his qilishi kerak. Ana shundagina u oldinga qarab yuradi, yashaydi, o'z imkoniyatlarini namoyon qiladi, – deydi tuman IIB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, kapitan Ana-

muammolarni keltirib chiqaradi. To'g'ri qaror esa sabr va tushunishdan tug'iladi.

– Bizning maqsadimiz jazolash emas, – deydi inspektor yana bir bor qat'iyat bilan. – Biz hayotni tiklashni istaymiz. Agar bir ayol o'ziga qaytsa, demak, biz to'g'ri yo'ldamiz. Bugun Hazoraspda ayollarga bo'lgan e'tibor shunchaki gaplarda emas, amaliy natijalarda namoyon bo'lmoqda. Sekin-asta bu yerda har bir uchrashuv – bir imkoniyat, har bir suhbat – bir najot, har bir e'tibor – bir hayotni yaxshilash qudratiga ega.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Chilonzor tajribasi

O'SOYISHTALIK VA OBODLIKNING YANGI MANZILI

Bugun poytaxtimizning Chilonzor tumanida joylashgan «2-Charx Kamolon» mahallasi nafaqat o'zining fayzli ko'chalari, balki hududda shakllanayotgan xavfsizlik muhiti bilan ham ajralib turibdi. Ilgari «sariq» toifaga kiritilgan mazkur mahallani «yashil» hududga aylantirish maqsadida IIV va Toshkent shahar IIBBning tajribali xodimlari, mahalla yettiligi hamda IIV Akademiyasi vakillari bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qilishmoqda.

– Biz mahallaga tizimli tahlil va ijtimoiy profilaktikani yo'lga qo'yish, mahalla yettiligiga amaliy yordam ko'rsatish maqsadida biriktirilganmiz, – deydi IIV Akademiyasi kafedra katta o'qituvchisi, podpolkovnik Sherzodbek Abdurahobov. – Uch nafar professor-o'qituvchi va kursantlar bilan birgalikda 700 dan ziyod xonadon va 1700 dan ortiq shaxslar batafsil o'rganib chiqildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jinoyatlarning aksariyati boshqa hududlardan kelgan shaxslar tomonidan sodir etilgan. Shu sababli asosiy e'tibor hududdagi oltin sotiladigan markaz va ko'p qavatli uylar atrofida jinoyat o'choqlarini bartaraf etishga qaratildi. Natijada joriy yilning dastlabki uch oyida oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar soni keskin kamayishiga erishildi.

ortiq fuqaro «Mening inspektorim» mobil ilovasidan faol foydalanmoqda. Shuningdek, kiberjinoyatlardan himoyalash maqsadida mingdan ortiq shaxsga tushuntirishlar berib, ularning ijtimoiy tarmoqlariga ikki bosqichli himoya tizimi o'rnatishga ko'maklashildi. Hudud «sariq» toifada bo'lsa-da, biriktirilgan mas'ullar va yettilik bilan hamkorlikda tez orada «yashil» toifaga o'tish rejalashtirilgan. Buning uchun nafaqat huquqbuzarlik va jinoyatga qarshi kurashilyapti, obodonlashtirish hamda ijtimoiy muammolarni hal etishga e'tibor qaratilyapti.

Mahalla nafaqat obodlikka yuz tutmoqda, balki har bir fuqaroning muammosi ting-



nafar mahalla ahlining «Cyber_102» tizimiga ulanishi raqamli qalqonning mustahkamlanayotganidan dalolat. Shu bilan birga, 237 ta ma'muriy bayonoma orqali tartibning ta'minlanishi va 550 ta profilaktik suhbatlar o'tkazilishi huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz muhitni shakllantirmoqda.

Amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga eng xolis bahoni, shubhasiz, mahalla fuqarolari berishadi. Ko'p yillardan buyon shu hududda istiqomat qiluvchi Alisher Boymuhammedovning fikrlariga quloq tutamiz:

Bugun mahallamizga yangicha ruh, chinakam obodlik nafasi kirib keldi. Bu o'zgarishlar zahirida katta bir jamoaning birgalikdagi mehnati mujassam. Mahalla qiyofasi tubdan o'zgarayotganini har bir qadamda his qilishi mumkin. Mahalla raisi boshchiligidagi keng ko'lamli obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda, profilaktika inspektori hamda IIV Akademiyasidan kelgan professor-o'qituvchi va kursantlar xonadonlarda xatlov tadbirlarini o'tkazib,

muammolarni tinglashmoqda. Ko'chalarga zamonaviy yoritish tizimlari, xavfsizlikni ta'minlovchi «SOS» tugmachalari o'rnatildi va muntazam patrullik xizmati yanada kuchaytirildi.

Mahallaning ertangi kuni yanada porloq bo'lishi yo'lida nafaqat davlat idoralari, balki buni anglab yetgan fuqarolar ham kamarbasta bo'lmoqda. Bu yerda IIV Akademiyasining ilmiy salohiyati, zamonaviy tadqiqot uslublari va mahalla yettiligining amaliy sa'y-harakatlari yagona maqsad yo'lida birlashgan. Amalga oshirilayotgan «Chilonzor tajribasi» jarayonida «2-Charx Kamolon» mahallasi xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha namunaviy hudud sifatida gavdalanmoqda.

Bunday tizimli ishlar natijasida mahalla nafaqat jinoyatchilikdan xoli hududga, balki har bir xonadon egasi o'zini xotirjam va davlat himoyasida his etadigan namunali maskanga aylanishi muqarrar. Mahalla farovon bo'lsa, yurtda baraka, xonadonlarda esa osoyishtalik hukm suradi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



– Hududdagi 1142 ta xonadonning har biri bizning doimiy e'tiborimizda, – deydi mahalla profilaktika katta inspektori, mayor Farhod Soriyev. – Ayniqsa, raqamlashtirish jarayoni ishimizni ancha yengillashtirdi. Bugungi kunda 2800 nafardan

lanadigan, xavfsizlik yuqori darajada ta'minlangan maskanga aylanmoqda. Bu kabi jadal o'zgarishlar mahalla ahlining kelajakka bo'lgan ishonchini yanada oshiradi. Ushbu jarayonlar shuni anglatadiki, zamonaviy xavfsizlik tizimi faqatgina qat'iy

nazorat emas, balki insonlarga bo'lgan mehr hamda yuksak e'tiborni ko'rsatmoqda.

Hududda amalga oshirilgan 400 kvadrat metrdan ortiq maydonda obodonlashtirish ishlari, 280 metr beton to'siqlarning yangilanishi va mahalla guzari yo'laklarining ta'mirlanishi shunchaki tashqi ko'rinishni o'zgartirish emas, balki aholida o'z hududiga nisbatan mas'uliyat va egalik hissinin mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xavfsizlikning texnik jihatlari ham yangi bosqichga ko'tarildi. 8 ta tashvish tugmasi va 3 ta «SOS» qurilmasining o'rnatilishi, 1300 nafardan ortiq fuqaroning telegram ilovasiga ikki bosqichli himoya tizimi o'rnatilishi hamda 1380



Тўйхат ўрнида

СЎЗ МАСЪУЛИЯТИ
унинг ҳаёт маслагига айланган

Истеъфодаги полковник Азиз Эрназаров ҳақида гап кетганда, қатъият ва ижод, интизом ва сўз санъатини ўзида мужассам қилган инсон кўз ўнгимизда гавдаланади. У мана шундай камёб фазилатларни шахсиятида бирлаштириб, ички ишлар тизимида ҳам, ўзбек журналистикасида ҳам ўзига хос мактаб ярата олди.

А. Эрназаровнинг касб танлаши тасодиф эмас. У Ўзбекистонда журналистика таълимининг асосчиларидан бири, филология фанлари доктори, профессор Тўғон Эрназаров хонадонида камол топди. Отадан ўтган сўз масъулияти ва ҳақиқатга интилиш туйғуси унинг ҳаётини маслагига айланди. 1979 йилда Тошкент давлат университетининг журналистика факультетини тамомлаган ёш мутахассис фақат қалам тебратиш билан чекланмай, жамиятда тартиб ва қонун устуворлигини таъминлашдек шарафли йўлни танлади.

1983 йилда Тошкент шаҳар ИИББ остонасига қадам қўйган ходимнинг қалбида журналистга хос кузатувчанлик ва офицерларга хос матонат бор эди. Унинг хизмат йўли бевосита жамоатчилик билан мулоқот ва тарғибот ишлари билан боғлиқ бўлди. У фаолиятини ЙПХ полкида оддий йўриқчиликдан бошлаб, полковник унвонига бўлган шарафли йўлни босиб ўтди.

А. Эрназаров фаолиятининг яна

бир ёрқин саҳифаларидан бири ИИБ Бирлашган таҳририятида бош муҳаррир сифатида кечган давридир. Ушбу даврда соҳа нашрлари мазмунан бойиди, тезкорлик ва холислик асосий мезон қилиб белгиланди. Ёш журналистларга ҳам ҳарбий интизомни, ҳам касбий маҳоратни баробар ўргатиб, ҳақиқий устозлик қилди.

Азиз аканинг ютуқларида рафиқаси Гулчеҳра опанинг ҳиссаси бекиёс. Қирқ йилдан ортиқ вақт давомида Ўзбекистон телерадиокомпаниясида меҳнат қилган бу ижодкор аёл турмуш ўртоғининг энг яқин маслаҳатгўйи бўлди. Бугун уларнинг фарзандлари ҳам ота-онаси изидан бориб, журналистика соҳасида самарали меҳнат қилмоқда. Бу эса Эрназаровлар сулоласининг маънавий илдизлари нақадар бақувват эканидан далолат бериб турибди.

Инсон учун меҳнатдан тўхташ эмас, балки жамиятга керакли бўлиш бахти муҳимроқдир. Лавҳамиз қаҳрамони 2012 йилда пенсияга



чиққанига қарамай, эл хизматида давом этди. Ўзидаги бекиёс салоҳият ва йиллар давомида тўпланган билим хазинасини ёшлар билан баҳам кўриб, уларга нафақат соҳа сирларини, балки ижодий ҳамда ҳаёт сабоқларини ҳам ўргатиб келмоқда.

Фурсатдан фойдаланиб, яқинда – 19 апрель санасида ўзининг муборак 70 ёшини қарши олаётган устозни ИИБ Бирлашган

таҳририяти жамоаси номидан самимий табриклаймиз. У кишига мустақкам соғлиқ, оилавий хотиржамлик ва ижодий бардавомлик тилаб, халқимиз ва соҳамиз равнақи йўлидаги хизматларининг ҳузуру ҳаловатини фарзандлар ва набиралар ардоғида кўриб юришини тилаймиз.

ИИБ Бирлашган таҳририяти.

Хизматларда

IJTIMOIY BARQARORLIK KALITI

Mehnat migratsiyasi bugungi kunda faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy va demografik jarayon sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, joriy yilning dastlabki uch oyida birgina viloyatimizdan 114 ming nafardan ortiq fuqaro uzoq muddatga xorijga chiqqan.



Albatta bu bir tomondan aholi bandligini ta'minlash, oilalar daromadini yaxshilash va mamlakatga valyuta tushumini ko'paytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Lekin migratsiyaning ijtimoiy oqibatlari ham mavjud bo'lib, xorijga uzoq muddatga ketgan fuqarolarning oilalarida tarbiyaviy, psixologik va ijtimoiy muammolar yuzaga kelishi ehtimolini ham vujudga keltiradi. Ya'ni ota-onasi chet elda bo'lgan bolalar tarbiyasi, o'qish masalalarida muammolar paydo bo'ladi. Bu esa davlat idoralari va jamiyattan qo'shimcha e'tibor hamda qo'llab-quvvatlashni talab qiladi.

Ikkinchi tarafdin esa xorijdan qaytib kelgan 27 ming 444 nafar fuqaroning jamiyatga qayta moslashuvini va

tibbiy ko'rikdan o'tkazilishini ta'minlash kerak bo'ladi. Ochig'i, hali ayrim tadbirkorlarimiz xorijdan qaytib kelgan fuqarolarning orttirgan mehnat tajribasidan samarali foydalanishga e'tibor qaratishmayapti. Shu bois, biz har ikki tomon bilan profilaktik suhbatlar o'tkazib, ularning 7 ming nafarini ish bilan ta'minlashga erishdik. Albatta, bu ko'rsatkich qoniqarli emas.

Pasportni yo'qotish yoki yaroqsiz holga keltirish kabi shaxsiy hujjatlar bilan bog'liq holatlar ham migratsiya jarayonida tez-tez uchraydigan sir emas. Bu esa xorijda yurgan fuqarolarga huquqiy maslahatlar berish, konsullik xizmatlarini raqamlashtirish va ularning qulayligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Noqonuniy migratsiya esa alohida e'tibor talab qilindigan masaladir. Shu bois, profilaktik targ'ibot tadbirlari davomida, aholiga tushuntirish ishlari olib borilayotganda noqonuniy migratsiya fuqarolarning huquqiy himoyasiz qolishi, mehnat ekspluatatsiyasiga duch kelishi va turli jinoiy holatlarga aralashib qolish xavfini paydo qilishini tushuntirapmiz. Shuningdek, mehnat migrantlariga xorijga chiqishdan oldin huquqiy va kasbiy bilimlarini oshirish uchun kasbiy ko'nikmalar markazida o'qishlari tavsiya etilmoqda. Xorijda bo'lgan davrida esa oila a'zolari bilan muntazam aloqada bo'lishlarini qat'iy ta'kidlayapmiz.

Mexrojxon TELYAYEV,
podpolkovnik.

Qashqadaryo viloyati.

Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг 35 йиллиги олдида

ҚАДРИ БАЛАНД, ШАЪНИ УЛУҒ ЭЛ

ТЎДАБОШИ – ФЕРМА МУДИРИ

1977 йил. Ёшгина лейтенант эдим. Участка инспектори лавозимида хизмат қилардим. «Урал» мотоциклида тезкор чақирув бўйича кетаётгандим. Фарҳод совхозида ўғрилиқ содир бўлгани учун воқеа жойига зудлик билан етиб боришим зарур эди. Шу пайт мотоциклим бир-икки тариллаб, йўлнинг ўртасида ўчди-қолди. Ана холос...

Уловимни бир четга олиб, йўловчи машина кута бошладим. Кўп ўтмай кўкишроқ тусдаги «Жигули» автомашинаси тўхтади. Унда Фарҳод совхозига етиб олдим. Ушбу давлат хўжалигидаги фермасида беш юз бошдан ортиқ қорамол боқиларди. Ўша куни кечаси номаълум кимсалар қоровулнинг оёқ-қўлини боғлаб, фермадан ўн тоннадан ортиқ омукта ерни олиб чиқиб кетишганди.

Тонгда ишга келган ферма ишчилари қоровулни абгор ҳолда кўриб, тезда ички ишлар бўлимига хабар беришади. Тергов-тезкор гуруҳининг етиб келишини кутмасдан қоровулни саволга тутдим. Ҳали ўттизга ҳам кирмаган бу йигит азбаройи қўрқиб қолганиданми, гаплари пайдар-пай эди. Гоҳ босқинчиларни икки киши деса, гоҳ уч киши дерди. Бир зўравонлар «Зил» юк машинасида эди деса, яна бир гапида «Газ-53» автомашинасида деб гувоҳлик берарди.

Воқеа жойини диққат билан кўздан кечириб бошладим. Мени ажаблантирган жиҳати босқинчилар бир соатга қолмасдан ҳамма «ишни битириб» чиқиб кетгани бўлди. Бу ўта шубҳали эди. Юк автомашинаси филдираги қолдирган излар шубҳасиз «Зил»га тегишли эди. Ўйлаб-ўйлаб, ҳамма жиҳатларни таҳлил қилиб, жиноятни айнан шу фермада ишлайдиган шахслар содир этган деган тўхтамга келдим.

Хўш, қоровул нега уларни танимаган. Ёки таниса ҳам, сир бой бермаётими? Балки, ҳаммасининг тили бирдир. Хуллас, суриштиришлар чуқурлаша бошлади. Ферма ишчиларини бирма-бир сўроққа тутта бошладим. Нимагадир зоотехник ишга келмаганди. Бу ҳам менинг шубҳамни кучайтирди.

Ишчиларни қайта-қайта сўроққа тутиш тактикаси иш бера бошлади. Улардан

бири кечаси шу атрофдан «Зил» автомашинаси ўтганини кўрганини айтиб қолди. Психологик жиҳатдан унга таъсир ўтказилганида, ўғрилиқни қоровул, ҳайдовчи, зоотехник ва бир ишчи ўзаро тил бириктириб қилганини «гуллаб» қўйди.

Маълум бўлишича, зоотехник билан бир ишчи омбор мудирини ўғрилиққа кўндира

иморат солиш учун қурилиш материаллари зарур бўлган одам борки, шу аёлга иши тушарди. Котиба хонимнинг «қўли узун» эди. Унинг кабинети олдида турнақатор навбатда туриларди. Чунки туман ижроия қўмитаси раисининг розилиги котиба орқали олинарди. Бунинг учун эса «узатиш» тақозо этиларди.



олишмайди. Ундан маълум пул эвазига ем-хашакни сотиб олишга уринишлар ҳам иш бермайди. Натижада улар қоровулни қўлга олишади. У билан ўлжани арра қилишга келишишади. Бошқаларда шубҳа туғдирмаслик учун унинг қўл-оёғини боғлаб кетишади. Ўша куни кечга яқин ўн тонна ем қоплаб қўйилади. Суриштирувлар жараёнида омукта ем туман раҳбарларидан бирининг хонадонига туширилгани маълум бўлади. Жиноятни ферма мудирининг ўзи уюштирган экан.

КОТИБАНИНГ ТИЛЛА ТАҚИНЧОҚЛАРИ

Ўша йилларда Ховос тумани ижроия қўмитасида бир аёл котиба бўлиб ишларди. Машина олмоқчи бўлган,

«Ҳаромдан келган бойлик буюрмайди» деганлари рост экан. Куз кунларининг бирида бадавлат аёлнинг уйига номаълум кимса ўғрилиққа тушади. Аёлни пайқаб қолгач, қўл-оёғини боғлаб, оғзига латта тикади. Хонадондан ўша давр учун катта миқдор бўлган юз минг сўмлик тилла буюмларни олиб кетади.

Эртаси куни эрталаб котиба ишга келмайди. Тушдан кейин эса уни қидир-қидир бошланади. Уйининг эшиги бузиб кирилганда, ҳамма нарсаси тўзиб ётганига гувоҳ бўлинади. Диван тагидан қутқариб олинган аёлнинг гап-сўзидан кейин туман ИИБ ходимлари оёққа турғизилади. Улар сафида мен ҳам бор эдим.

Жиноятчини топишнинг ўзи бўлмади. Биз бир неча кун гумон қилинувчиларни сўроққа

тутдик. Лекин шубҳаларимиз ўз тасдиғини топмади. Шунда мен жиноятга манзил колонияда жазо ўтаётган шахслардан бири алоқадор бўлса-чи, деган тахминни ўртага ташладим. Маҳкумларни кузатиб, улар орасидан аёл тасвирлаб берган кишига ўхшаш уч нафарини ажратиб олдим. Тергов-суриштирув, юзлаштириш жараёнида жиноятни улардан бири буюртма асосида содир этгани аниқланди.

ЁРУҒ КУНЛАР ШУКРОНАСИ

Шукрки, кўп йиллар ички ишлар органларида хизмат қилиш насиб этди. Ҳозирда кексалик гаштини сурмоқдаман. Бу йил етмиш беш ёшни қаршиляяпман. Собиқ иттифоқ даврида одамлар ёруғлик кўрмай, юпун яшаганларига, адолатсизликларга дуч келганларига кўп бор гувоҳ бўлганман. Уй курсанг, шифер олиш учун ҳам рухсат талаб қилинарди. Бир парча қоғоз олинганидан кейин дўконга эмас, қурилиш базасига боришинг, у ерда ҳам «шапка» беришингга тўғри келарди. Чет элга чиқиш қанчалар мушкул бўлганини айтмай қўя қолай.

Бугун-чи? Хоҳлаган иқтидорли ёшлар хорижнинг нуфузли университетларида таҳсил оляпти. Истаганлар чет мамлакатлардаги курортларда дам олишяпти. Дастурхонлардаги тўкинчиликни айтмайсизми! Фаровонлик боис тўйлар тўйларга уланмоқда. Энг муҳими, инсон қадри жойига қўйилляпти.

Дарвоқе, бир пайтлар қурилиш материаллари сотиб олиш учун рухсат сўраларди десам, набираларим ҳайрон бўлишади. Чунки бугунги кунда хилма-хил қурилиш ашёлари бозорларда тўла. Ҳалол даромади ҳисобига ҳашаматли уй-жой қуришдан ҳеч ким чўчимайди.

Ҳозирги ёшларимиз – бахтли авлод. Улар сифатли таълим олишлари, замонавий касб-ҳунарларни эгаллашлари, ўз қобилиятларини юзага чиқаришлари учун давлатимиз томонидан барча шарт-шароитлар яратилмоқда. Шу боис ҳам жонажон юртимизнинг истиқлолини қадрлашлари лозим.

Абдуназар МАЪМУРОВ,
истеъфодаги майор.

Сирдарё вилояти.



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

Становление

Интеллектуальное состязание преследовало несколько ключевых целей: раскрытие потенциала лицеистов, популяризация юридических знаний среди подрастающего поколения, формирование достойного кадрового резерва для ОВД.

На протяжении двух дней участники демонстрировали глубину знаний и аналитические способности. Программа испытаний включала выполнение письменной работы и тестирование. Эксперты оценивали не только уровень теоретической подготовки ребят по профильным дисциплинам, но и их умение грамотно применять нормы права на практике.

По результатам набранных баллов места распределены следующим образом:

I место – Шохрух Юнусов (Кашкадарьинский академический лицей);

II место – Шахзода Ахмедова (Ташкентский академический лицей №1);

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЙ ОЛИМП

В Академии МВД Узбекистана состоялась республиканская олимпиада по правоведению среди учащихся ведомственных академических лицеев.



III место – Азизбек Ашуров (Бухарский академический лицей).

Победители удостоены почетных дипломов и ценных подарков. Участникам,

проявившим особую волю к победе, вручили благодарственные письма МВД.

Для гостей Академии была организована насыщенная внеконкурсная

программа. Лицеисты ознакомились с образовательным процессом вуза, посетили учебные центры и приняли участие в культурно-просветительских

мероприятиях, что позволило им еще ближе соприкоснуться с будущей профессией.

Юрий ЛИ,
педагог.

На злобу дня

СПЕКУЛЯЦИЯ НА ЧЕЛОВЕЧНОСТИ

Буквально недавно на выходах из некоторых станций ташкентского метрополитена, в подземных переходах спешащие горожане могли наблюдать картину: на ступенях «дежурили» женщины, часто с детьми на руках, смиренно прося подаяние. Однако в последние дни «декорации» сменились – ступени пусты. Куда же исчезли те, кто еще вчера взывал к милосердию?

ЧУДЕСА «ИСЦЕЛЕНИЯ»

Как показали результаты рейдов, некоторые из «нуждающихся» обладают поистине актерским талантом и... атлетическими способностями. Жители не раз становились свидетелями курьезных сцен: стоит на горизонте появиться человеку в форме, как «немощные инвалиды» совершают «чудесное исцеление». В миг коляски, костыли забываются, а лица, только что молившие о помощи, начинают бежать со скоростью света. Такие «марафоны» вызывают у прохожих лишь горькую улыбку...

– Мы подошли к мужчине, который просил подаяние у станции метро «Чиланзар», показывая, что с трудом передвигается. Он вдруг вскочил и предпринял попытку к бегству, демонстрируя отличную физическую форму, – рассказывает старший инспектор профилактики ОПП ОВД № 3 УКД ОВД Чиланзарского района старший лейтенант Миродил Равшанов. – Выяснилось, «инвалидность» была имитацией – «страдалец» оказался вполне здоровым, для него такая инсценировка – привычный способ «заработка».

Как отмечают криминологи, доход профессионального попрошай-



ки в оживленных точках Ташкента может составлять 300–400 тысяч сумов в день. За месяц сумма может вплотную приближаться к доходу высококвалифицированного специалиста, а при активной «работе» – даже превышать его...

МАНИПУЛЯТИВНЫЙ
«РЕКВИЗИТ»

Если симуляция болезни воспринимается прохожими с горькой усмешкой, то другой аспект «бизнеса» вызывает возмущение. Речь идет о вовлечении в попрошайничество детей. Организаторы подобных схем ради наживы не гнушаются

ничем: детей используют как «реквизит» для вызова жалости.

Важно понимать: когда ребенок с малых лет сидит на бетонном полу с протянутой рукой, у него формируется искаженная психология. Вместо учебы и осознания ценности труда ребенок привыкает к получению денег за счет эксплуатации чужой жалости. Это разрушительно влияет на личность несовершеннолетнего, закрепляя позицию социального иждивенца.

ЦИФРЫ И ФАКТЫ

Система социальной защиты в нашей стране работает по принципу

«никого не оставить без внимания». Выявляются действительно нуждающиеся семьи, которым оказывается адресная помощь. На этом фоне попрошайничество становится циничным бизнесом на милосердии.

По данным ГУВД г. Ташкента, за последние три месяца были выявлены 210 человек, занимающихся попрошайничеством. Цель – пресечь манипуляцию состраданием, свести на нет навязчивый промысел.

Напомним, что согласно ст. 188³ КоАО, за попрошайничество предусмотрена административная ответственность. Однако если принятые меры не возымеют действия, в силу вступает уже ст. 127¹ УК, предусматривающая более суровые санкции.

МИЛОСЕРДИЕ БЕЗ ОБМАНА

Раздавая деньги на обочине, у входа в метро, вы скорее всего подкармливаете индустрию обмана. Настоящая поддержка – это не купюра в протянутую руку уличного манипулятора, а осознанная помощь. Эталон такой адресности в нашем обществе является махалля. Именно здесь люди знают истинное положение каждой семьи. Помощь через официальные структуры – это гарантия того, что ваш вклад решит проблему, а не обогатит профессиональных попрошаек.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

Xavfsiz va sog'lom yurt

KIM NENI IZLASA, TOPGAY BEGUMON!

Hayotda har kimning o'z maqsadi bor. Kimdir oliy o'quv yurtida o'qib, yetuk mutaxassis bo'lishni, yana kimdir kasb-hunar egallashni istaydi. Kimningdir orzusi so'nggi rusumdagi mashina haydash bo'lsa, boshqa birovning istagi dang'illama uy-joy. Orzular, maqsadlar, tilaklar turli xil. Ammo ularning barchasini yaxshi yashash, hayotda o'z o'rniga ega bo'lish istagi birlashtiradi. Barchamiz mana shu ezgu niyatga erishish uchun o'qiymiz, ishlaymiz, harakat qilamiz. Umrimiz shu bilan mazmun kasb etadi.

Albatta, baxtli yashash, jamiyatda, el-yurt orasida hurmat-e'tibor qozonish o'z qo'limizda. Shuningdek, umrni bemaqsad o'tkazib, biron-bir ezgu ish, nom-nishon qoldirmaslik ham har kimning o'ziga bog'liq.

Zero, yaxshilik va yomonlik, fazilat va illat orasi bir qadam. Ko'p hollarda bilib-bilmay qo'yilgan qadam taqdirimizni hal qiladi. Baxtli yo baxtsiz, farovon yoki taassufli hayot kechirishimiz ham ko'p jihatdan shunga bog'liq.

Manfaatni ma'rifatdan ustun qo'yib

Har bir ota-ona jigarbandining ilmi, odob-axloqli bo'lishini xohlaydi. Ammo ba'zan ezgu istak va ma'rifat berish niyati, uni amalga oshirayotgan shaxsning kimligi va maqsadiga e'tiborsizlik tufayli farzandlar taqdirini xavf ostiga qo'yishi mumkin.

Yangi Namangan tumanining «Bog'i Eram» ko'chasida yashovchi, 1977-yilda tug'ilgan fuqaro M.S.ning o'z xonadonida tashkil etgan «hujra»ga mart oyi boshidan buyon 46 nafar fuqaro, asosan bolalar darsga qatnashgan.

Berilayotgan ta'lim na davlat standartlariga, na diniy idoralar talablariga javob berardi. Eng achinarlisi, «ustoz» ham maxsus diniy bilimga ega emas, faqat yoshligida eshitgan-bilganlari bilan dars o'tgan edi.

Tezkor tadbir davomida aniqlangan raqamlar esa tashvishli holatni ko'rsatadi. 46 nafar ta'lim oluvchining aksariyati voyaga yetmaganlar, 9 nafari rasmiy ta'limga jalb qilinmagan, 30 nafari maktab darslariga muntazam ishtirok etmagan, 3 nafari esa maktab yoshiga ham yetmagan murg'ak bolalar.

Bolalar maktabda zamonaviy bilim olishi, tengdoshlari bilan muloqot qilishi va jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lib yetishishi kerak edi. Ammo ular tor «hujra»larda, noqonuniy ta'lim olib o'tirishdi.

– Maxsus diniy muassasada o'qimaganiman. Avval qarindoshlarimga dars berishni boshladim, keyin ular ko'payib ketdi... Manfaat evaziga noqonuniy dars berganimdan pushaymonman, – deydi M.S.

Ammo bu pushaymonlik bolalarning yo'qotilgan vaqtini va ongiga singdirilgan noaniq tushunchalarni qaytarib berolmaydi. Moliyaviy manfaatni ma'rifatdan ustun qo'yish oqibati doimo shunday yakunlanadi.

Bu jarayonda o'z farzandini maktabdan to'sib, noma'lum shaxs qo'lga topshirgan ota-onalar ham aybdor aslida. 42 nafar bolaning ota-onasiga nisbatan ham ma'muriy chora ko'rildi.

Farzandlarimizga diniy va dunyoviy bilim berishni istasak, buning qonuniy va xavfsiz yo'llarini tanlashimiz lozim.



Kosonsoylik «kriptochoi»

Bugungi kunda uyali telefon nafaqat aloqa vositasi, balki butun boshli «birja»ga aylandi. Ko'pchilik virtual olamda pul topishning yo'li oson deb o'ylaydi. Ammo qonun nazaridan chetda qolishning imkoni yo'qligini Kosonsoyda sodir bo'lgan voqea yana bir bor isbotladi.

Namanganlik 40 yoshli tadbirkor o'zi uchun qulay va daromadli «biznes» topgandek edi. U «Binance» va «Bitget» kabi mashhur platformalar orqali kriptoaktivlar savdosiga kirishib ketdi. Smartfon ekranida raqamlar o'sgani sari, u qilayotgan ishining huquqiy tomonini — ya'ni davlatdan tegishli litsenziya olish zarurligini unutib qo'ydi.

Kosonsoy tumanida o'tkazilgan «Xavfsiz va sog'lom yurt» tadbiri davomida bu yashirin faoliyat fosh bo'ldi. Tekshiruvlar natijasi kishini hayratga soladi: oddiygina uyali telefon orqali 250 million so'mdan ortiq mablag' noqonuniy ravishda aylantirilgan.

Bu pullar davlat nazoratidan chetda qolgan, hech qayerda ro'yxatga olinmagan ulkan moliyaviy oqim edi. Natijada, kechagina «daromad manbayi» bo'lib xizmat qilgan «Redmi Note 11» uyali telefoni bugun jinoyat ishining asosiy ashyoviy daliliga aylandi.

Ko'pchilikda «O'z pulimni o'zim ishlatsam, nimasi jinoyat?» degan savol tug'ilishi mumkin. Javob oddiy: litsenziyasiz faoliyat iqtisodiy beqarorlikka va firibgarliklar ko'payishiga yo'l ochadi. Har qanday moliyaviy aylanma qonun himoyasida bo'lishi uchun u albatta davlat ro'yxatidan o'tishi shart.

Hozirda mazkur holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilmoqda. 1984-yilda tug'ilgan, hayot tajribasiga ega bo'lgan bu inson endi qilgan ishi uchun qonun oldida javob berishiga to'g'ri keladi.

Shundaylarga qarata aytmoqchimizki, har bir inson baxtli bo'lishga, yaxshi yashashga, hayotda o'z o'rniga ega bo'lishga haqli. So'zimiz avvalida ta'kidlaganimizdek, umrimizning mazmuni ham shundan iborat. Demakki, sa'y-harakatlarimiz shunga munosib bo'lmog'i lozim. Zero, shoir aytganidek, «Kim neni izlasa, topgay begumon!..»

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.

Inson qadri ulug'

SUV KELTIRGAN ELDA AZIZ

Guliston tumani IIB inspektori, mayor Hamid Toshbekov o'z faoliyati davomida bunga ko'p bora amin bo'lgan.

Tuman IIB rahbariyati tomonidan aprel oyining dastlabki kunlarida «Ishonch» mahallasida sayyor qabul o'tkazilgan edi.

«Ishonch» mahallasi tumanining Guliston shahri bilan tutashib ketgan, to'rt mingdan ortiq aholi istiqomat qiladigan hududi. Katta yoshdagilarning ko'pchiligi savdo, xizmat ko'rsatish sohalarida mehnat qiladi. Sayyor qabul davomida o'ndan ortiq murojaat kelib tushdi. Ularning orasidagi ikkitasi aholini ichimlik suvi bilan ta'minlashga oid edi.

Dastlab 50–55 yoshlardagi faol ayol qariyb bir oydan beri mahallada ichimlik suvi mavjud emasligi, sababi suv ta'minoti minorasidagi nasoslar buzilganini aytib, ushbu muammoni hal etishda ko'mak so'radi. Shundan keyin ikkinchi murojaatchi hududning ayrim ko'chalariga ichimlik suvi yetib bormayotgani, shuning uchun 150 metr uzunlikdagi yaroqsiz holga kelgan suv quvurini almashtirish kerakligini ta'kidladi.

Tuman IIB mas'ullari murojaatlarni joyida o'rganish maqsadida

ko'chalarni aylanib chiqishdi. Ushbu masalalarni hal qilish uchun suv ta'minoti korxonasi mutasaddilari, saxovatpesha tadbirkorlar taklif etildi. Muammoni ijobiy hal etish Guliston tumani IIB Murojaatlar bilan ishlash guruhi katta inspektori Hamid Toshbekovga yuklatildi.

Ertasi kunioq o'nga yaqin ustalar ish boshlashdi. Tumandagi eng yirik qishloq xo'jalik korxonasining texnikasi ko'makka yetib keldi. Ikki kun davomida mahalladagi suv ta'minoti minorasi nasoslari ta'mirlandi. Buning uchun ularning motor qismidagi elektr o'rami almashtirildi, avtomatikasi yangilandi. Nasoslarga elektr quvvati yuborilganida, jo'mraklardan suv o'tilib chiqa boshladi. Shu lahzalarda aholining suyunganini ko'rsangiz edi.

Uzoqroqdagi ko'chalarga homiy-lar mablag'lari hisobidan 150 metr yangi suv quvurlari olib kelindi. Traktor, ekskavatorlar to'rt kun davomida qazishma ishlarini olib borishdi. Beshinchi kun deganda eng olis ko'chadagi xonadonlarga ham obi hayot yetib bordi.



– Aholimizning murojaatiga bu qadar tez-korlik bilan katta e'tibor qaratilgani uchun Tuman IIB rahbariyati va Murojaatlar bilan ishlash guruhi katta inspektoriga H. Toshbekovga alohida minnatdorlik bildiramiz, – deydi mahalla raisi Vali aka Hayitov.

Ma'lumot uchun aytish mumkinki, xayrli ishlarga bosh qo'shib, ham ijtimoiy profilaktika choralari qo'llayotgan Hamid Toshbekov 1989-yilda shu zaminda tug'ilgan. U IIV Akademiyasini bitirgach, Guliston tumani IIBda turli lavozimlarda faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

– Hamisha murojaatlarda ko'tarilgan masalalarni o'z vaqtida, ijobiy hal etish choralari ko'ramiz. Toki aholi davlatimizdan rozi bo'lsin, qayta murojaatlarga o'rin qolmasin. Muammolar yechimini topish uchun zarur bo'lganda mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlik qilamiz, – deydi lavhamiz qahramoni.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

Yoshlar — kelajak bunyodkori

HAYOTGA QAYTAYOTGAN TAQDIRLAR

Noto'g'ri muhit ta'siriga tushib qolganidan turli murakkab vaziyatlarga duch kelgan yoshlar uchun to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, maslahat beruvchi va qo'llab-quvvatlovchi inson, ya'ni yo'lboshchi juda zarur bo'ladi. Bugungi kunda har bir taqdirga manzilli yondashuv, e'tibor va g'amxo'rlik tufayli yuzlab yoshlar hayotda o'z o'rnini topib, to'g'ri yo'lga qaytmoqda.

Viloyatda 1 265 nafar yoshlar ichki ishlar organlari rahbar xodimlariga nomma-nom biriktirilib, ular bilan tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, otaliqqa olingan yoshlar bilan ishlash to'rt bosqichli tizim asosida tashkil etildi. Avvalo, har bir yosh bilan individual suhbatlar o'tkazilib, ularning psixologik portreti shakllantirildi. Bu esa muammoning ildiziga yetib borish va to'g'ri yechim topishda muhim ahamiyat kasb etdi. Natijada 198 nafar ishsiz yosh aniqlanib, ulardan 22 nafari ish bilan ta'minlandi, kasb-hunarga ega bo'lmagan 3 nafar yosh o'quv kurslariga, 85 nafari esa sport to'garaklariga jalb etildi. Ichki ishlar organlari probatsiya ro'yxatida turgan 124 nafar yoshlardan 16 nafari hisobdan chiqarildi. Yana 76 nafar yoshning mavjud muammolari ijobiy hal etildi. Vaholanki, bu raqamlar ortida qayta hayotga qaytgan taqdirlar turibdi.

Otaliq tizimi doirasida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga, ular orasida alohida e'tibor talab qiladigan toifalar bilan manzilli ishlashga e'tibor kuchaytirildi. Jumladan, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolgan 161 nafar hamda ag-

ressiv xulq-atvorli 56 nafar yosh bilan doimiy profilaktik chora-tadbirlar olib borildi. Ularni to'g'ri yo'lga qaytarish, jamiyatga moslashtirish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida turli madaniy-ma'rifiy hamda sport tadbirlari muntazam tashkil etilmoqda. Ayniqsa, voleybol bo'yicha «Viloyat IIB boshlig'i kubogi» musobaqalarining o'tkazilishi yoshlarni jamoaviylikka, sog'lom raqobatga va intizomga chorlab, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda muhim omil bo'ldi.



Viloyat IIB boshlig'i, polkovnik T. Ismoilov ishtirokida Jarqo'rg'on, Denov, Sariosiyo va Uzun tumanlarida o'tkazilgan uchrashuvlarda probatsiya hisobida turgan yoshlardan ayrimlari sud qarori asosida shartli ravishda hisobdan chiqarilib, ishsiz yoshlar ish o'rinlari bilan ta'minlandi.

Yangicha ishlash tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, har bir yoshga e'tibor, ishonch va to'g'ri yo'nalish berilsa, u albatta jamiyatda o'z o'rnini topadi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



Tuman IIBda

TARIX VA BUGUN MUJASSAM MASKAN

Chimboy tumani Qoraqalpog'istondagi eng qadimgi hududlarlaridan biri hisoblanadi. Unga xalq tomonidan «Besh qal'aning biri» deya ta'rif ham berilgan. Ayni paytda tuman o'zining boy tarixi, an'anaviy hunarmandchiligi, qoraqalpoqlarning qadim madaniyatini va zamonaviy qiyofasini o'zida mujassam etgani bilan ma'lum va mashhur.

FAOLIYAT SAMARASI KO'RSATKICHLARDA

Har qanday joyda tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Chimboy tumani IIB xodimlarining bu boradagi vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishini va fidoyiligini quyidagi ko'rsatkichlarida ham ko'rish mumkin.

– Ta'kidlash joizki, joriy yilning o'tgan 3 oyi davomida tumanda umumiy jinoyatchilik o'tgan yilning shu davriga nisbatan 38,5 foizga, oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar esa 50 foizga kamaydi. Yo'l-transport hodisasi bilan bog'liq jinoyatlar umumiy jinoyatchilikning 33 foizini tashkil etadi. Shundan kelib chiqqan holda, hududda haydovchilar va piyodalar o'rtasida targ'ibot-tashviqot tadbirlari hamda qoidabuzarliklarni aniqlash bo'yicha reydlarni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Ushbu davr mobaynida bosqinchilik, talonchilik, nomusga tegish va avtotransport vositalarini olib qochish jinoyatlari sodir bo'lmasligiga erishildi, – deydi «Sodiq xizmatlari uchun» medali sohibi, tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik Atabek Masharipov.

BARCHASI «YASHIL» TOIFADA

Sir emaski, profilaktika xizmati ichki ishlar organlarining aholi bilan yaqin muloqotda bo'ladigan bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan joylarda huquqbuzarlik va jinoyatchilikni jilovlash ko'p jihatdan aynan mazkur xizmat xodimlariga bog'liq. Yuqorida tilga olingan raqamlar Chimboy tumanida avvalambor hududiy



profilaktika inspektorlarining faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilganidan darak beradi.

Ma'lumot tariqasida keltiradigan bo'lsak, tumanda 12 ta makon va 10 ta ovul fuqarolar yig'ini mavjud bo'lib, ularda 117,1 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Mazkur hududlarga 24 nafar profilaktika inspektori birlashtirilgan. Joriy yil boshidan buyon fuqarolar yig'in-

larining barchasi «yashil» toifaga kiritilgan. Shu kunga qadar sodir etilgan huquqbuzarliklar yuzasidan 1520 ta ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, aybdorlardan 130 million so'mdan ortiq jarima undirilgan.

– Profilaktika inspektorlari o'zlariga birlashtirilgan hududlarda nafaqat huquq-tartibotni ta'minlashga, balki aholi muammolarini hal etishga ham munosib hissa qo'shib kelmoqda. O'tgan davr mobaynida ular tomonidan hokim yordamchilari, makon va ovul oqsoqollari, xotin-qizlar faollari hamda yoshlar yetakchilariga 663 tadan xulosa berilgan. Hozirgi kunga qadar ularda ko'tarilgan masalalarning 61,2 foizi ijobiy hal etilishiga



holidan xabar olindi. Sog'lig'ini tiklashi uchun tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli kasalxonaga yo'llanma berildi. Bundan tashqari, bir martalik nafaqa tayinlash uchun tegishli tashkilotga xat yo'llandi. Yaroqsiz holatga kelib qolgan fuqarolik pasporti ID kartaga almashtirib berildi.

– Yil davomida tuman IIB hamda boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda 4 marotaba mehnat yarmarkasi tashkil etilib, guruh xisobida turuvchi 20 nafar shaxsga ishga joylashishi uchun yo'llanma berildi. Hozirda tuman Bandlikka ko'maklashish markazi bilan birga sud tomonidan axloq tuzatish jazosi tayinlangan shaxslarni doimiy ishga joylashtirish choralari ko'rilmog'da, – deydi tuman IIB Probatsiya guruhi katta inspektori, kapitan Rasul Xojalepesov.

YOSH VA SHIJOATLI

Tuman IIB huzuridagi Tergov guruhi tomonidan o'tgan vaqt mobaynida 32 ta jinoyat ishi tergov qilinib, sudga oshirilgan. Sodir etilgan jinoyatlarni tahlalib qaraydigan bo'lsak, ulardan aksariyat qismi firibgarlik, yo'l-transport hodisasi bilan bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Tuman IIB huzuridagi Tergov guruhi tergovchisi, leytenant Raxmanjan Bayniyazov yosh va shijoatli xodimlardan biri. U Nukus shahrida tavallud topgan. 2024-yili Akademiyani tugatib kelganidan keyin Chimboy tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori etib

tayinlanadi. 2025-yil iyul oyidan buyon hozirgi lavozimida faoliyat yuritib kelyapti. Joriy yil boshidan buyon 15 ta jinoyat ishini tergov qilib, sudga oshirgan.

Misol uchun, tuman IIBga murojaat qilgan fuqaro T. bankdan o'zining nomiga kredit rasmiylashtirilgani, undan o'zining bexabar ekanligini bayon etgandi. Ushbu murojaat asosida dastlabki dastlabki tergov harakatlarini olib borgan leytenant R. Bayniyazov fuqaro T.ning tanishi uning ruxsatsiz onlayn kredit rasmiylashtirganini aniqlashga muvaffaq bo'ldi.

QONUNYI CHORA KO'RILDI

– Joriy yilning o'tgan davrida tuman IIB Migratsiya va personallashtirish guruhi tomonidan 2807 nafar fuqaroga ID-karta, 336 nafariga esa chet elga chiqish biometrik pasporti berildi.

– Ushbu davr mobaynida pasport tartiboti talablariga rioya etmagani uchun 157 nafar fuqaroga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari qo'llanildi, – deydi tuman IIB Migratsiya va personallashtirish guruhi katta inspektori, kapitan Talg'at Kadirov.

Shuningdek, tuman hududida faoliyat olib borayotgan 3 ta qo'shma korxonada ishlayotgan xorijlik fuqarolarning qonunchilikka amal qilishlarini hududiy profilaktika inspektorlari bilan birgalikda o'rganish yo'lga qo'yilgan. Joriy yilda ular tomonidan qoidabuzarlik holati sodir etilgani aniqlanmadi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.
Qoraqalpog'iston Respublikasi.



REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN

A FUSION OF HISTORY AND MODERNITY

The Chimboy district is one of the most ancient regions of Karakalpakstan and is popularly known as «One of the five fortresses». Today, it is distinguished by its rich history, national traditions, and modern appearance.

PERFORMANCE DRIVEN BY RESULTS

DIA officers are working effectively to ensure peace and security in the district. In the first 3 months of this year, overall crime fell by 38.5 per cent, while preventable crimes decreased by 50 per cent. As incidents involving road traffic accidents made up the largest share, awareness-raising and raids were intensified. During this period, no robberies, muggings or serious crimes were committed.

ALL IN THE «GREEN» CATEGORY

The district is home to over 117 000 residents and is patrolled by 24 prevention officers. Since the start of the year, all neighbourhoods have been classified as «green». 1 520 administrative reports have been drawn up, and over 130 million sums in fines have been collected.



The prevention inspectors are also active in resolving residents' issues. Based on their conclusions, 61.2 percent of the issues raised were resolved positively.

TO PREVENT CRIME RECIDIVISM

The District DIA probation group is regularly carrying out preventative work with individuals under supervision. Since the beginning of the year, 30 individuals have been discharged, while the sentences of five were made more severe for rule violations. Currently, 140 individuals are under supervision and are subject to strict monitoring.

The pardoned citizen was also not overlooked: assistance was provided for their recovery, a request for financial aid was considered, and their documents were sorted out. Additionally, four job fairs were held in partnership with other organisations, resulting in 20 people being placed in employment.

YOUNG AND AMBITIOUS

The investigative team forwarded 32 criminal cases to court. The majority of these involved fraud and road traffic accidents. Young investigator Rahmanjan Bayniyazov successfully concluded 15 cases this year. In particular, he uncovered a crime by discovering that an online loan had been taken out in a citizen's name without their consent.



MIGRATION AND IDENTIFICATION

Since the beginning of the year, 2 807 citizens have been issued with ID cards and 336 with passports for travelling abroad. Measures were taken against 157 individuals for breaching passport regulations. In addition, the activities of foreigners working at joint ventures in the region were continuously monitored, and no violations were detected.

Process

Door-to-door service

In the Nurata district of the Navoi region, the process of exchanging biometric passports for modern ID cards has been organised in a systematic and convenient manner. As a result, the public are not experiencing any unnecessary inconvenience.

During the year, 3 263 citizens were issued with new-style ID cards. Additionally, 395 young people received their first identity documents.

A mobile service has been introduced, especially for citizens with limited mobility. Specialists visit their homes to process the documents on the spot.

– I couldn't go far as I'm getting on in years. The staff came to my home and renewed my passport, – says 87-year-old Misal.



In the regions

Awareness and knowledge

The «Jizzakh Experience» in the fight against cyber threats

In Jizzakh province, alongside information technology, special attention is also paid to information security. Systematic work is being carried out in state organisations and educational institutions to prevent cyber-attacks and protect personal data. The decision taken in this area has taken this activity to a new level.

SECTOR SELECTED

Analyses have shown that teachers are the group most affected by cybercrime. For this reason, extensive awareness-raising work was carried out in schools. The rules for protecting against cyber threats were explained to nearly 40 000 staff members from 566 schools.

This work has also continued in banks, where customers are being given guidance on the safe use of their bank cards and how to avoid fraud.

Additionally, through the «Jizzakh Antivirus Cyber» bot, malicious software was identified in over 1 200 Telegram groups and was eliminated. As a result, hundreds of thousands of citizens were protected from viruses.

EDUCATION IS MANDATORY

As part of the decision's implementation, cyber hygiene training courses have been introduced in organisations, and «Cyber security hour» sessions are being held. Employees' knowledge is being assessed through tests.

At a practical seminar held in Jizzakh city, this experience was widely discussed and specialists from all regions took part. Door-to-door outreach in the Zargarlik neighbourhood was recognised as an effective method.

This approach by the Jizzakh Regional DIA is of great importance in ensuring information security and serves as a model for other regions.



A champion from a family of doctors

Surkhandarya is a land renowned as the home of wrestlers. Raised in this environment, world karate champion Salohiddin Tursunov was also brought up in the spirit of national traditions.

He was born on 20 November 1996 in the Denov district to a family of doctors. His father is an endocrinologist and his mother is a nurse. Although his brother and sister also chose medicine, Salohiddin opted for sport.

He graduated from the Tashkent state university of physical education and

sport in 2021 and currently serves at the «Jar» sports and health complex within the Ministry of internal affairs.

Behind Salohiddin's success are his coaches, Doniyor Tashmukhamedov and Mahmudjon Suyarov. At the World Championship held in Tashkent from 3–5 April, he won the gold medal in the kumite (-85 kg) category. He is also a bronze medalist at the «Tashkent Open», a medalist at the Uzbekistan Championship, and a Euro-Asia champion.



– Behind every victory of mine lies the blessing of my parents, he says. – My greatest reward is their pride in me.

Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.

Амир Темур таваллудининг 690 йиллигига

СОҲИБҚИРОН САЛТАНАТИДА РАЗВЕДКА ХИЗМАТИ

Соҳибқирон барпо этган салтанат нафақат ўзининг ҳарбий қудрати, балки мукаммал бошқарув тизими билан ҳам алоҳида ажралиб туради. Айниқса, салтанат бошқарувида хавфсизлик ва барқарорликни таъминлашда разведка хизмати (яширин маълумот тўплаш ва таҳлил қилиш)га алоҳида эътибор қаратган. Давлат бошқарувида ахборотнинг аҳамиятини жуда яхши англагани боис турли манбалардан маълумот йиғиш тизимини пухта йўлга қўйган.

Разведка хизматини ташкил этишда асосан қуйидаги тоифаларга эътибор қаратилган. Хорижий давлатларга юборилган элчилар сиёсий ва ҳарбий маълумотларни тўплаган, савдогарлар ва сайёҳлар ҳам муҳим маълумотларни етказиб берган. Ички кузатувчилар давлат ичида тартиб-интизомни назорат қилишган. Ушбу тизим марказлашган ҳолда бошқарилиб, барча ахборот тўғридан-тўғри Амир Темурга етказилган.

Амир Темур ўзининг «Тузуқлари»да «Олтинчи тоифа – ишончли, тўғри эътиқодли оқилхирадманд кишиларким, давлат сирларини уларга очиб, салтанат ишлари бўйича улардин маслаҳат олишимга лойиқ эдилар. Бу тоифа кишилар билан сирдошлик қилиб, ўз махфий ишларим ва пинҳоний сир-асрорларимни ўшаларга топширдим», – дея таъкидлаган. Шу маънода, разведка хизмати душман қўшинлари сони, жойлашуви ва режаларини аниқлаш, бошқа давлатлардаги ички вазиятни ўрганиш, мамлакатдаги исён ёки фитналарни олдиндан аниқлаш ва олдини олиш ҳамда савдо йўллари ва бозорлар ҳақида ахборотлар тўплаш каби вазифаларни бажарган.

Соҳибқирон разведка хизматини амалга оширишда турли хил услублардан фойдаланган. Кўп босқичли текширув – бир маълумотни бир неча манбалар орқали тасдиқлаш, тезкор алоқа тизими – хабарларни тез етказиш мақсадида чопарлар тармоғи ташкил этилган, ниқобланган фаолият – разведкачилар ўзини бошқа касб вакиллари сифатида намоён этган. Ибн Арабшоҳнинг

маълумотича, «Разведкачилар – чор атрофда бўлаётган ҳодисаларни ва уларнинг хабарларини Темурга етказиб, манзилу



Суратлар сунъий интеллект ёрдамида тайёрланди.

шаҳарларни тавсифлайдилар. Уларнинг текис ва нотекис жойларининг суратларини келтириб, уйлари ва дарёлари ўрнини чизиб кўрсатардилар, шулар орасида у жойларнинг яқин ё узоқ, тор ёки кенлигини, шаҳарлар ва қишлоқларнинг номларини, манзил ва пинҳон жойларини, ҳар бир жойнинг авлиё бошлиқлари, амирлари, улуғлари, фозиллари, бойларию фақирларини, уларнинг ҳар бирини исм ва лақабини, шуҳрати ва насабини, хунари ва воситаларини баён қилардилар. Натижада Темур ўз фикри билан шу нарсаларни яққол кўриб, тафаккури

натижасида ўз ерлари билан хориж жойлар устидан ҳам тасарруф юритарди».


Амир Темур разведкачиларни танлашда жуда эҳтиёткорлик билан иш кўрган. Айнан мазкур соҳа вакиллари дунёдаги ҳар хил янгиликлар, содир бўлиши мумкин бўлган воқеалардан мунтазам равишда Амир Темурни хабардор этиб турган. Разведкачилар орасида турли ёшдагилари мавжуд бўлиб, уларнинг ҳар бирига ўзининг даражасида муҳим вазифа ва топшириқлар юклатилган.

Соҳибқирон ўз давлатида хавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш мақ-

садида мамлакат сарҳадларининг барча томонларига разведкачиларни қўйган эди.

Шунингдек, дунёнинг турли мамлакатларида савдогар, сайёҳ, қаландар, мунажжим, дарвеш, фолбину жодугар ниқоби остида фаолият кўрсатган разведкачилардан юксак билим ва сезгирлик талаб этилган. Айниқса, разведка борасида фаолият кўрсатган чол ва кампирлар ўзларининг ўта зийраклиги билан ажралиб турган. Хусусан, улар фуқаролар билан қиладиган муомаласида ўз ҳикмати баҳсида икки муҳолифни бир-бирига бириктириш ёки икки душманни бир-бирига дўст қиладиган даражада уддабурон кишилар сифатида таассурот уйғотишган.

Соҳибқирон юришга жўнашдан анча аввал душманнинг Қуролли Кучлари, мудофаа иншоотлари, у ердаги ички вазият кабилар ҳақида аниқ ва тўла маълумотга эга бўлиш мақсадида ўз айғоқчи (хабаргир, жосус)ларини мунтазам юбориб турган. Фаним тўғрисида зарур маълумотларга эга бўлгандан сўнггина юришга тараддуд кўрилган. Айниқса, разведка хизмати билан шуғулланишда савдогарларнинг тутган ўрни алоҳида аҳамият касб этган. Боиси, савдогарлар савдо алоқаларини олиб бориш баҳонасида қўшни мамлакатлардаги сиёсий вазият тўғрисида ўта муҳим, қим-



матли маълумотлардан хабардор этиб турган. Шу тариқа, кам йўқотиш билан ғалабага эришиб, давлат хавфсизлигини сақлашга замин яратилган.

Хулоса қилиб айтганда, разведка хизматида алоҳида эътибор қаратишдан кўзланган асосий мақсад, энг аввало, давлатни ҳар қандай ички ва ташқи хавфдан асраш орқали салтанатда мунтазам тинчлик, хотиржамлик, барқарорликни таъминлаш ҳамда мамлакатда осуда ҳаётнинг ҳукм суришига замин яратишдан иборат бўлган.

Мансур МУСАЕВ,
ИИБ Академияси
профессори,
сиёсий фанлар
доктори.

QO'SHSAHIFADA —



Toshkent viloyati qadimdan Buyuk ipak yo'lidagi ilm-fan, hunarmandchilik, madaniyat taraqqiy etgan makonlardan biri bo'lgan. Ammo bu o'lka nafaqat qadimiy tarixi bilan, boy tog'oldi tabiati bilan ham o'ziga jalb etadi. Qishki mavsumda esa viloyatning Amirsoy, Chimyon, Bildirsoy va Yangiobod tog'-chang'i dam olish maskanlarida odamlar bilan gavjum bo'ladi.

Shimoliy va shimoli-g'arbdan Qozog'iston Respublikasi, shimoli-sharqdan Qirg'iz Respublikasi, sharqdan Namangan viloyati, janubidan Tojikiston Respublikasi, janubi-g'arbdan Sirdaryo viloyati bilan chegaradosh. Joriy yilning 1-mart holatiga ko'ra, viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining soni 2 524 tani, shundan qo'shma korxonalar 555 ta va xorijiy korxonalar 1 969 tani tashkil etmoqda. Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasi 6 trln so'mga yetgan. Viloyat hududi 15,14 ming km bo'lib, 15 ta tuman, 16 ta shahar, 89 ta shaharchadan tashkil topgan. Doimiy aholisi soni esa 3 million nafardan ortiq. Viloyatda jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarning oldini olishda ichki ishlar organlari xodimlarining ham salmoqli hissalari bor.



PROFILAKTIK CHORALAR SAMARASI

Toshkent viloyatida «Xavfsiz va sog'lom yurt» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirining birinchi bosqichi yakunlandi. Tadbirlar davomida viloyat IIBB va uning quyi bo'linmalari tomonidan 3 600 dan ortiq tezkor-qidiruv tadbiri o'tkazildi. Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida turli yo'nalishdagi 314 ta jinoyat fosh etildi. Shundan 115 tasi avvalgi yillarda sodir etilgan jinoyatlarga to'g'ri keladi. Bu esa ushbu yo'nalishda tizimli ishlar izchil davom ettirilayotganini ko'rsatmoqda. Qidiruv tadbirlari davomida sud va tergov organlaridan yashiringan 92 nafar shaxs ushlanib, 97 nafar bedarak yo'qolgan fuqaro topildi va oilasiga qaytarildi.

Giyohvandlikka qarshi kurashish yo'nalishida 402 ta holat aniqlanib, tadbirlar davomida 23,6 kg giyohvandlik vositalari hamda 40 244 dona kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari noqonuniy muomaladan olindi. Shuningdek,

17 nafar «zakladchik» ushlanib, 3 708 dona «zakladka» musodara qilindi. Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish doirasida 282 ta holat aniqlanib, noqonuniy saqlanayotgan qurol-yarog'lar tegishli tartibda olib qo'yildi. Xususan, 13 dona ov quroli, 18 dona pnevmatik qurol, 427 dona o'q-dori hamda 585 dona sovuq qurollar (bita, kastet va turli xil pichoqlar) musodara qilindi. Korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish yo'nalishida 2 272 ta holat aniqlangan bo'lsa, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish doirasida 362 ta holat fosh etildi.

Umuman olganda, «Xavfsiz va sog'lom yurt» tadbirining birinchi bosqichi hududlarda jinoyatchilikni jilovlash hamda aholi xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Profilaktika va tezkor choralarini samarali qo'llash jinoyatlarning oldini olishda muhim omil bo'lib, bu boradagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.



XODIMNING MA'NAVIY QIYOFASI — TIZIMNING YUZI

Ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri — shaxsiy tarkibning ma'naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda xodimlarda vatanparvarlik va xizmat burchiga sadoqat tuyg'ularini mustahkamlashdan iborat. Ushbu mas'uliyatli vazifani hayotga tatbiq etishda Yuqori Chirchiq tumani IIB boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, mayor Farrux Mahmudov tomonidan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. F.Mahmudov 2012-yildan buyon ichki ishlar organlari safida bo'lib, patrul-post, profilaktika va sohaning turli xizmatlarida toblangan.

Tuman IIB shaxsiy tarkibi o'rtasida xizmat intizomini mustahkamlash



vishda o'rganib borilmoqda. Mayor Mahmudov tashabbusi bilan xizmatda alohida namuna ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish, ularning



va korrupsiyaviy holatlarning oldini olish bo'yicha doimiy profilaktik ishlar olib borilmoqda. Xodimlarning xizmat faoliyati davomida fuqarolar bilan muomala madaniyati, kasbiy etika qoidalariga rioya etish masalasi doimiy nazoratga olingan. Ushbu yo'nalishda o'tkazilayotgan seminarlar xodimlarning huquqiy va siyosiy bilimlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tuman IIBda ma'naviy-ruhiy muhit barqarorligini ta'minlash maqsadida xodimlarning oilaviy va ijtimoiy sharoitlari muntazam ra-

oila a'zolari bilan uchrashuvlar tashkil etish hamda yosh xodimlarga «ustoz-shogird» an'anasi asosida tajribali mutaxassislarni birlashtirish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Mayor Farrux Mahmudov faoliyatini ichki ishlar organlarining xalqchil tuzilmaga aylanishi, xodimlarning ma'naviy qiyofasini yuksaltirish va pirovardida jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga yo'naltirgan. Ma'naviy tayyorgarlik — har bir xodimning xizmat vazifasini vijdonan bajarishi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

TOSHKENT VILOYATI



SALOMATLIK VA TARTIB POSBONLARI

Viloyat IIBB JXX Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi tarkibidagi Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi hududda sanitariya-epidemiologik barqarorlikni saqlash va huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim bo'g'in hisoblanadi.

Guruh tomonidan joriy yilning birinchi choragi davomida jami 954 kg go'sht va go'sht mahsulotlari, 1002 kg sut va sut mahsulotlari, 2202 kg parranda go'shti mahsulotlari, 450 kg baliq mahsulotlari, 413 kg tuzlama mahsulotlari, 2238 kg noma'lum sharoitda tayyorlangan mahsulotlar, shuningdek, 11259 dona tuxum mahsulotlari iste'molga yaroqsiz deb topilib, belgilangan tartibda savdodan chetlashtirildi.

Shuningdek, aholi o'rtasida hayvonlarni quturish kasalligiga qarshi emlash ishlari keng ko'lamda olib borildi. Tadbir davomida 266 696 bosh hayvonni quturish va oqsil kasalligiga qarshi emlashda Toshkent viloyati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasiga amaliy yordam ko'rsatildi.

Guruh o'z ish jarayonida Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi hamda boshqa mutasaddi idoralar bilan yaqin hamkorlik qiladi. Bunday idoralararo hamkorlik viloyatning barcha tuman va shaharlarida, ayniqsa, Toshkent shahriga tutash hududlarda nazoratning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

HAMON FAOLLAR SAFIDA

Ichki ishlar organlari faxriylari — bu tizimning nafaqat boy o'tmishi, balki bugungi kungi ma'naviy poydevori va yosh xodimlar uchun hayotiy tajriba maktabidir. Ular bosib o'tgan yo'l — bu matonat, sadoqat va vatanparvarlikning tirik namunasidir. Tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash yo'lida eng murakkab vazifalarni bajargan, bugun esa o'z tajribalarini kelajak avlodga yetkazib kelayotgan faxriylardan biri viloyat IIBB Faxriylar kengashi a'zosi, iste'fodagi katta serjant Muzaffar A'dazovdir.

U Toshkent viloyati va Toshkent shahri tumanlarida yo'l-patrul xizmati xodimi sifatida xizmat qilib, pensiyaga chiqqan. Uning sohasi kimdir uchun shunchaki «tayoqcha ko'tarib yo'l chetida turish» bo'lib ko'rinsa-da, aslida bu kasb egasi uchun har bir kun — sinov va mas'uliyat demakdir. Yozning jazirama oftobida asfalt erib, havo dim bo'lganda ham, qishning qahratonida izg'irin yuzni achishtirganda ham u o'z postini tark etmadi. Uning uchun bayramlar yoki dam olish kunlari deyarli bo'lmagan. Hamma oilasi davrasida, issiq uyida o'tirganida, u yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlash uchun xizmat burchini bajargan.

— Faxriylar yoshlarda fuqarolar bilan muloqot qilish madaniyatini shakllantirishda, ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasini yuksaltirishda asosiy maslahatchi hisoblanadi. Muzaffar hamon faollar safida, hamon dadil va yurt manfaati uchun o'zini ayamaydi, — deydi Toshkent tumani IIB Faxriylar kengashi raisi, iste'fodagi kapitan Rahimjon Shodiyev.



Muzaffar ota bo'sh vaqtlarida bog'dorchilik hamda obodonchilik ishlari bilan mashg'ul bo'ladi. Hozirda uning izdoshi sifatida kuyovi, safdor Islomjon Yo'ldoshev ichki ishlar organlari safida xizmat qilib kelmoqda.

TO'G'RI YO'L IZLAGANLAR HAMROHI

Xalqimizda «Adashganning aybi yo'q, qaytsa — o'ngdir» degan naql bor. Bugun jamiyatimizda jinoyat sodir etib, qilmishidan pushaymon bo'lgan, lekin ozodlikdan mahrum etilmagan holda jazo o'tayotgan shaxslar bilan ishlash tizimi tubdan

yangilandi. Bu borada Bekobod tumani IIB JXX Probatsiya guruhi xodimlarining xizmati alohida tahsinga loyiq. Ana shunday mas'uliyatli vazifani yelkasiga olgan fidoyilardan biri guruh katta inspektori, kapitan Iskandar Abdurahmonovdir.

Lavhamiz qahramoni ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini 2017-yildan boshlagan. JIED tizimida orttirgan tajribasi uni probatsiya xizmatiga tezda moslashib ketishiga zamin yaratdi. U 2019-yildan buyon Bekobod tumanida probatsiya xizmatida samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Hozirda tuman miqyosida 505 nafar shaxs probatsiya hisobida turadi. Joriy yilning birinchi choragi davomida 74 nafar shaxs hisobdan chiqarilgan. 11 marotaba mehnat yarmarkalari tashkil etilishi natijasida 90 nafarga yaqin mahkumlarning bandligi ta'minlangan. Tartib-qoidalarga amal qilmagan 15 nafar mahkumning jazosi og'irrog'iga almashtirilgan.

Iskandar Abdurahmonov o'z faoliyatida «jazolash emas, tuzatish» tamoyiliga amal qiladi.

— Bizning nazoratimizdagi har bir shaxs — avvalo inson, — deydi kapitan. — Kimdir bilmay, kimdir hissiyotga berilib xato qilgan. Maqsadimiz ularni qayta jinoyat ko'chasiga kirmasliklari uchun qo'llab-quvvatlash. Ularni ishga joylashtirish, kasb-hunarga yo'naltirish — asosiy vazifalarimizdan hisoblanadi.

Intiluvchan va mas'uliyatni doimo birinchi o'ringa qo'yadigan Iskandar aka turmush o'rtog'i, MTM tarbiyachisi Mohigul Abdurahmonova bilan birgalikda uch nafar farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazmoqda. Xodimning ukasi, safdor Hojimurod Abdurahmonov ham akasi izidan borib, ichki ishlar organlari safida xizmat qilmoqda.

Qo'shsahifa materiallarini katta mutaxassis-muxbir, katta serjant Abror POYONOV tayyorladi.



Ma'naviyat va ma'rifat darsi

SOG'LOM MA'NAVIY MUHIT –
JAMIYAT BOYLI

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat.

Shavkat MIRZIYOYEV

Ma'naviyat – insonning ichki dunyosi, uning axloqi, odobi, fikrlashi va hayotga bo'lgan munosabati. Insonning kimligi, qanday yashashi va jamiyatda qanday o'rin egallashi, avvalo, uning ma'naviyatiga bog'liq. Boylik, mansab yoki tashqi ko'rinish vaqtinchalik bo'lishi mumkin, ammo ma'naviyat inson bilan doim birga. U insonni yaxshilikka undaydi, yomonlikdan qaytaradi. Ma'naviy yetuk inson halol mehnat qiladi, yolg'on gapirmaydi, boshqalarning haq-huquqini hurmat qiladi, so'zida turadi, muhimi, har bir ishni vijdon bilan bajaradi.



Sog'lom ma'naviy muhit bo'lgan joyda ahillik, ijodiy yuksalish va xotirjamlik bo'ladi. Bu muhitni uchta asosiy bosqichda tasavvur qilish mumkin.

Birinchisi, oiladagi sog'lom ma'naviy muhit. Oila – jamiyatning kichik bo'lagi va uning yuragi. Bu qo'rg'onda o'zaro ishonch va hurmat ustun turadi. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabat qo'rquvga emas, balki mehr va tushunishga asoslanadi. Milliy an'analar, kat-talarga hurmat va kichiklarga izzat kabi xislatlar ham aynan shu yerda shakllanadi. Inson tashqaridagi charchoqlarini oiladagi iliqlik bilan yengadi. Sog'lom oilaviy muhit ko-mil insonni voyaga yetkazuvchi eng xavfsiz qo'rg'ondir.

Ikkinchisi, jamoadagi sog'lom ma'naviy muhit. Bu taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Ishxona inson vaqtining katta qismi o'tadigan makondir. Bu yerda ma'naviy muhitning sog'lomligi nafaqat insoniylik, balki ish samaradorligi uchun ham muhim. Ishxonada shaxsiy manfaatlardan ko'ra, umumiy maqsad ustun turishi kerak. Bir-birini qo'llab-quvvatlash va tajriba almashish muhiti hukmron bo'lishi lozim. Shuningdek, mehnatning munosib qadrlanishi va

xodimlar o'rtasidagi sog'lom raqobat nosog'lom hasadning oldini oladi. Xodimlarning o'zaro muloqotida ichki madaniyatning yuqoriligi, g'iybat va guruhbozlikdan xoli bo'lish ishchanlik kayfiyatini yuqori darajada tutib turadi.

Uchinchisi, jamiyatdagi sog'lom ma'naviy muhit. Bu millatning qiyofasini belgilaydi. Aynan jamiyatdagi muhit yuqoridagi ikki bo'g'inning mevasidir. Odamlarning bir-biriga befarq emasligi, chin insoniy tuyg'ularning yuksakligi jamiyat tayanchidir. Bundan tashqari, jamiyat a'zolarining nafaqat huquqiy, balki yuksak odob-axloq me'yorlariga ixtiyoriy amal qilishi, ilmga, san'atga va ijodga bo'lgan intilishning kuchliligi jamiyatning ma'naviy immunitetini oshiradi.

Ma'naviyatli jamiyatda odamlar bir-biriga mehribon bo'ladi, qonun va qoidalarga amal qiladi, adolat va tinchlik ustuvor bo'ladi. Chunki ma'naviyat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning mustahkam poydevoridir.

Bugungi tez o'zgarayotgan globalashuv davrida har bir davlatning kuch-qudrati nafaqat uning iqtisodiy salohiyati yoki harbiy quvvati, balki fuqarolarining ma'naviy dunyosi va jamiyatdagi sog'lom muhit bilan

belgilanmoqda. Ma'naviyat – shunchaki nazariy tushuncha emas, balki xalqning yashash tarzi, qadriyatlari va kelajakka bo'lgan ishonchining ko'zgusidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ma'naviyat masalasini davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligiga shunday ta'rif bergan edi: **«Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat».**

Iqtisodiy yuksalish ma'naviy asossiz davomli bo'lmaydi, xuddi shuningdek, yuksak ma'naviyatsiz kuchli fuqarolik jamiyatini qurib bo'lmaydi.

Sog'lom ma'naviy muhitni yaratish yo'lida O'zbekistonda qator amaliy islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan tashkil etilgan «Besh muhim tashabbus»da yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni madaniyat, san'at va sportga

jalb etish orqali ijtimoiy depressiya va yot g'oyalarga qarshi «immunitet» hosil qilinmoqda.


Shuningdek, hududlarda ijodkorlar va ziyolilar bilan uchrashuvlar tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu aholi o'rtasida yuksak insoniy fazilatlarni targ'ib qilishda muhim vosita bo'lmoqda. Diniy bag'rikenglik yo'nalishida yurtimizda 16 dan ortiq konfessiya vakillarining tinchtotuv yashashi sog'lom ma'naviy muhitning eng oliy namunasidir. Bu xalqaro miqyosda ham yuksak baholanmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, sog'lom ma'naviy muhit hukmron bo'lgan jamiyatda loqaydlik va befarqlikka o'rin qolmaydi. Bunday muhitda har bir inson o'zini yurt taqdiriga daxldor deb his qiladi. Ma'naviy boy jamiyat – yengilmas kuchdir.

O'z muxbirimiz Sarvar SOBIROV tayyorladi.



Qoraqalpog' tilidagi matn.



Rus tilidagi matn.

Birni ko'rib fikr qil...

RULNI BOLALARGA BERMANG!

Rangli chiroqlar bilan bezatgan, jamoatchilik e'tiborini tortuvchi har xil beo'xshov xatti-harakatlar qilib, boshqa transportlar oqimiga xalaqit berib yurgan «Gentra» rusumli avtomashina tasviri yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalib, fuqarolarning haqli e'tiroziga sabab bo'ldi.

Farg'ona viloyati IIB JXX YHXB xodimlari ushbu lavha tarmoqqa tarqalishi bilan avtomashina egasini aniqlashdi. Rishton tumanida istiqomat qiluvchi fuqarolardan biriga tegishli mashinani uning voyaga yetmagan o'g'li boshqarganligi ma'lum bo'ldi.

2009-yilda tug'ilgan o'spirin avtotransport nazoratsiz turganidan foydalanib, uni ko'chaga olib chiqqan. Keyin turli chiroqlar bilan bezatib, harakat davomida yo'l bezoriligini sodir etgan. Uning beo'xshov xatti-harakatlari fuqarolar tomonidan tasvirga olinib, ijtimoiy tarmoqqa joylangan.

Ichki ishlar organlari xodimlari huquqbuzar va uning otasi bilan profilaktik suhbat o'tkazib, holat yuzasidan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirishdi. Sud organi esa o'z farzandiga rul boshqaruvini bergan otaga nisbatan bazaviy hisoblashning 10 baravari miqdorida jarima jazosi tayinlandi.

Internetda muhokamaga sabab bo'lgan yana bir videoda 10 yoshli bola «Gentra» rusumli avtomashinani mahalla ko'chalarida boshqarib yurgani aks etgandi. Yoshi kattalar bolaga tanbeh berib, bu ishi

noto'g'riligini aytganida, ularning gapiga parvo ham qilmay, mashina tezligini battar oshirib, boshqalar hayotiga xavf solgan. Yaxshiyamki, uning yo'lidan biron chiqib qolmadi, aks holda...



Ichki ishlar organlari xodimlari ushbu transport vositasi egasini topib, holatga oydinlik kiritishdi. Tegishli tartibda javobgarlikka tortilgach, aybini tan olib, xalqdan uzr so'radi.

– Bu bola nabiram bo'ladi, – deydi 60 yoshlarni qoralab qolgan fuqaro. – Unga rulni berib, xato qilganimizni tushunib yetdim. Bebo'shlik qilib, ko'chalarda haydab yurganini bilmay qolibmiz. Haydovchilik huquqini

qo'lga kiritmaguncha boshqa hech qachon rulga o'tkazmaslikka so'z beraman.

Marg'ilon shahrida esa hali haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lmagan yana bir yigitcha rul boshqaruviga o'tirib, avtomobillarga gaz quyish shoxobchasiga qarashli ochiq maydonda xavfli driftlar ko'rsatgan. Eng yomoni, bu driftlarni ijtimoiy tarmoqlarga joylagan.

Keyinchalik uning shaxsiga ham oydinlik kiritilib, ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirildi. Sayyor sud majlisida esa unga nisbatan 15 sutka ma'muriy qamoq jazosi tayinlandi.

– Keyingi paytlarda yosh bolalar va haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lmagan o'spirinlar tomonidan avtotransport vositalari hamda skuterlarni boshqarish holatlari ko'payib bormoqda, – deydi viloyat IIB JXX YHXB katta inspektori, kapitan Elbek Qobilov. – Ularga, albatta, rul boshqaruvini ota-onalari qo'shqo'llab topshirib qo'yishmoqda. Natijada ko'plab yo'l-transport hodisalari sodir etilyapti. Eng achinarlisi, ayrim yoshlar ko'chada yo'l bezoriligini amalga oshirib, omma e'tiborini tortish va internetda mashhur bo'lish maqsadida buni ijtimoiy tar-

moqlarga joylashmoqda. Shu bois biz joylarda o'tkazayotgan targ'ibot tadbirlarida aholi va yoshlarni bunday huquqbuzarliklarning ayanchli oqibatidan ogohlantirishga alohida e'tibor qaratyapmiz.

Mutaxassisning qayd etishicha, joriy yilning o'tgan davrida viloyatda voyaga yetmaganlar ishtirokida 32 ta yo'l-transport hodisasi sodir etilgan va unda 26 nafar fuqaro og'ir tan jarohati olib, shifoxonaga yotqizilgan. Eng achinarlisi, 6 nafar norasida hayotdan bevaqt ko'z yumdi. Bunday salbiy holatlar Qo'qon shahrida, Farg'ona, O'zbekiston, Furqat hamda Buvayda tumanlarida keskin oshib ketgan.

Qonun-qoidalarni mensimay, fuqarolar hayotiga xavf solgan va ko'cha bezoriligini amalga oshirgan haydovchilarga ta'sirchan choralar ko'rish, boshqalarni esa ogohlikka chorlash maqsadida Marg'ilon shahrida o'z qoidabuzarliklarini ijtimoiy tarmoqlarga joylagan haydovchilarning ishi sayyor sudda ko'rib chiqildi. Sud davomida 10 nafarga yaqin haydovchiga nisbatan 15 sutkalik ma'muriy qamoq hamda jarima jazolari tayinlandi.

Xulosa shuki, avtomashina boshqarish – katta mas'uliyat. Har bir haydovchi rulga o'tirarkan, nafaqat o'z hayoti, balki boshqalarning taqdiri uchun ham javobgar ekanini unutmasligi lozim.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

«OB QOLING, «SUVTEKIN» NARXDA...» yoki so'zda tekin, amalda pullik suvlar haqida

Ijodiy guruhimiz bilan tasvirga olish ishlarini tugatib qaytish chog'imizda, yo'l bo'yida bir sotuvchining «Keb qoling, ob qoling, qovunli, ananasli, olmal muzqaymoqlar «suvtekin» bo'ldi, tezroq oling, hozir tugaydi», – deya odamlarni chaqirayotganini eshitdim. Yo'limizda davom etar ekanmiz, yaqinda ijtimoiy tarmoqda ham bir do'kon reklamasida kiyim-kechaklarga «narxlar – suvtekin» deb yozilganini ko'rganim esimga tushib, o'ylanib qoldim. Nahotki, biz suvning har qatrasini qanchalik qimmat ekanini unutib qo'ydik?!

Suv – hayot manbai. U insonga ato etilgan eng bebaho ne'matlardan biri. Nafaqat inson, balki barcha tirik mavjudot suvsiz yashay olmaydi. Bugungi kunda suv muammosi tobora global masalaga aylanib bormoqda. Ayrim joylarda odamlar bir qultum suvga zor. Ba'zilar bir necha chaqirim uzoqdan ichimlik suvini tashishga majbur. Bu esa mehnat va katta xarajatlar talab qiladi. Shularni o'ylab ko'rgan kishi «suvtekin» degan iboraning xato ekanini darrov anglaydi.

Qadimda ota-bobolarimiz «suvga supurma, suvga tupurma», deb bejizga aytish-

magan. Ular suvning haqiqiy qiymatini anglab yetgan. Ammo so'nggi avlod vakillari suvdan tejab foydalanishga e'tibor bermayapti. Loqaydlik tufayli isrof bo'layotgan suvlar haqida matbuotda qayta-qayta yozilsa-da, uni asrashga bo'lgan e'tibor talab darajasida emas.

Ayniqsa «suvtekin», degan qarashning aqidaga aylanib qolishi nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy muammo ham hisoblanadi. Chunki inson qachonki bir ne'matning qadrini bilmasa, uni asrashga intilmaydi. Qadrsizlangan ne'mat esa sekin-asta yo'qolib boradi. Shu nuqtayi nazardan qa-



raganda, suvga bo'lgan munosabatimiz kelajakka bo'lgan munosabatimizni belgilaydi.

Shu bois, ota-onalar farzandlariga suvdan oqilona foydalanishni kichik yoshidanoq o'rgatib borishlari lozim. Ularga oshxonada idish-tovoqlarni yuvish chog'ida suvni behuda oqizib qo'ymaslikni, yuz yuvish va tish tozalashda jo'mrakdagi suvni ochib qo'ymaslikni tushuntirishlari kerak. Chunki bola aynan oilada shakllangan odatlarga butun umri davomida amal qiladi. «Qush uyasida ko'rganini qiladi», degan naql ham bejiz aytilmagan.

Xulosa qilib aytganda, suv hech qachon tekin bo'lmagan va bo'lmaydi ham. Uni asrash, tejash va qadrlash esa har bir insonning burchi, shuningdek insoniylik mezonidir.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.




Xodim minbari

XOTIRJAM SAYOHAT

sayyoh ortida turgan ko'rinmas himoya

Vatanimiz aeroportlariga qo'ngan har bir sayyoh uchun hamma narsa yangi va begona tuyuladi. Ammo oradan ko'p o'tmay, u o'zini erkin his qila boshlaydi. Chunki yo'llar tartibli, ko'chalar osoyishta, tarixiy maskanlar esa ochiq va xotirjam. Aslida bu xotirjamlik tasodifiy emas. Puxta o'ylangan tizim va fidokorona xizmat mahsulidir.



So'nggi yillarda turistik hududlarda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida maxsus tuzilmalar tashkil etilib, patrul xizmatlari kuchaytirildi. Viloyat IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimlari nafaqat tartibni saqlash, balki sayyohlarga yo'l ko'rsatish, muammolarni tezkor va tartibli hal etishda ham faol ishtirok etmoqda. Ayniqsa, profilaktika ishlari alohida ahamiyat ega. Jinoyat sodir bo'lgandan keyin emas, balki uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar xavfsiz muhitni yaratishda asqatadi. Bu esa sayyoh uchun eng muhim narsa – ishonch hissini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar xavfsiz turizmni yangi bosqichga olib chiqdi. Turizm infratuzilmasining rivojlanishi, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi, xavfsizlik tizimining raqamlashtirilishi natijasida xizmat sifati sezilarli darajada oshdi. Endilikda xavfsizlik faqat nazorat emas, balki aqlli boshqaruv tizimiga aylanyapti.

Bu borada viloyatimizda «Qalqon» situatsion tezkor boshqaruv markazi tashkil

etilgani alohida e'tiborga loyiq. Ushbu markaz zamonaviy texnologiyalar asosida hududda sodir bo'layotgan jarayonlarni real vaqt rejimida kuzatish, tezkor tahlil qilish va zarur choralarini ko'rish imkonini bermoqda. Natijada hudud boshqaruvi yanada samarali va aniq tizimga o'tdi. Bu esa nafaqat fuqarolar, balki minglab sayyohlar uchun ham xavfsiz va qulay muhit yaratishga xizmat qilmoqda.

Eng e'tiborlisi shundaki, bu sa'y-harakatlar o'z samarasini bermoqda. 2025-yilning o'zida ko'hna va boqiy Buxoroga tashrif buyurayotgan sayyohlar soni keskin oshib, 6 millionga yetgani ham bejiz emas. Bu raqam ortida faqat tarixiy obidalar yoki go'zal manzaralarni ko'rish emas, balki eng avvalo, insonni o'ziga tortadigan muhim omil – xavfsizlik va ishonch mujassam.

Bir qarashda oddiy ko'ringan holatlar zamirida katta mehnat yotadi. Kechki payt tarixiy ko'chalar bo'ylab sayr qilayotgan sayyoh o'zini erkin his qilishi uchun kimdir ayni damda xizmatda turibdi. Uning xavfsizligi uchun kimdir tunni bedor o'tkazyapti. Bu – ko'rinmas, ammo beqiyos xizmatdir.

Sayohat – bu erkinlik, yangi manzillar va yangi taassurotlar demakdir. Ammo bu erkinlik ortida tartib, nazorat va fidoyilik mujassam. Demak, xavfsiz turizm – bu shunchaki xizmat emas, balki insonlarda ishonch uyg'otadigan tizimdir.

Yulduz USMONOVA,
Buxoro viloyati IIB XTTB JTSG inspektori,
leytenant.

Qilmish — qidirmish

DAMIRMI YO SUMAYA?..

Farg'onalik Asad Tolipov (ism-shariflar o'zgartirildi) internet olamidagi «Odnoklassniki» ijtimoiy tarmog'ida Sumaya Qodirova ismli profil egasi bilan tanishib qoladi. Onlayn tanishuvdan so'ng ular bir-birlariga xabar yoza boshlaydi. O'zaro suhbatlar esa beixtiyor ishqiy sarguzashtlarga ulanib ketadi.

Sirli suhbatlar avj olgan kunlarning birida Sumayadan kelgan navbatdagi xabar Asadning yuragiga g'ulg'ula soldi. «Yozishmalari-mizni erim ko'rib qolib, meni rosa kaltakladi. Shifoxonaga tushib qoldim. Oilam buzilib ketyapti. Bunga siz aybdorsiz. Endi dori-darmonlaringa pul to'laysiz. Aks holda, uyingizga borib, janjal qilaman, sizning ham oilangizni buzaman».

Kutilmagan bu xabardan esankiragan Asad qo'rqqanidan aytilgan pulni ayol yozgan plastik kartaga o'tkazib beradi. Endi «qulog'im tinchidi», deb turganida, yana noma'lum raqamdan qo'ng'iroq bo'ldi.

– Men viloyat IIB Kiberxavfsizlik bo'limi xodimi Damirman, – deb o'zini tanishtirdi qo'ng'iroq qilgan yigit. – Bizga Sumaya Qodirova ismli sahifa egasi ariza bilan murojaat qilgan. Siz unga SMS xabarlar yozgan ekan-siz. Eri buni bilib qolib, rosa uribdi. U bilan kelishib oling va aytgan summasini bering. Aks holda, yuqori turuvchi tashkilotlarga yana murojaat qilsa, sizga yomon bo'ladi.

Bu qo'ng'iroqdan so'ng fuqaro battar xavotirga tushdi. Keyin esa Farg'ona viloyati IIB boshlig'i nomiga ariza bilan murojaat qilib, huquqiy jihatdan amaliy yordam so'radi.

Viloyat IIB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi xodimlari tomonidan olib borilgan tergovga qadar tekshiruv harakatlari davomida o'zini viloyat IIB Kiberxavfsizlik bo'limi xodimi Damir deb tanishtirgan shaxs fosh etildi.

Eng ajablanarlisi shundaki, Damir va «Odnoklassniki» ijtimoiy tarmog'i orqali Sumaya Qodirova nomi bilan yozishmalar qilgan shaxs aslida bitta odam bo'lib chiqdi. Ushbu fuqaroning Yozyovon tumanida istiqomat qilishi aniqlanib, undan «Odnoklassniki» ijtimoiy tarmog'i orqali Sumaya Qodirova deb ochilgan sahifa mavjud bo'lgan telefon apparati dalilini ashho tariqasida olindi.

– Hozirda mazkur holat yuzasidan gumonlanuvchiga nisbatan



Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi va tergov harakatlari olib borilmoqda, – deyiladi viloyat IIB Axborot xizmati bergan xabarda.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

Фахрийлар — фахримиз

ҲАЁТ МАКТАБИ

Ҳали қарилкни бўйнига олмаган, тетик ва бардам, сергак ва хушёр, полвонкелбат Чолбой Эшқулов нафақат республикамиз, балки собиқ иттифоқ миқёсида ҳам намунали профилактика инспектори сифатида ном қозонган фидойи инсонлардан бири. Бу йил муборак 75 ёшни қаршилаётган отахоннинг хизмат тажрибаси ёйилишига сабаб бўлган «Ноёб кундалик дафтари» ҳақида ҳали ҳануз фахрийлар гапириб юришади.

Ўтган асрнинг саксонинчи йиллари. Қарши шаҳрининг «Қашқадарё» қўрғони — ҳозирги «Шайхали» маҳалласи криминоген вазияти энг оғир ҳудудлардан бири ҳисобланган. Бир нечта жазони ижро этиш муассасалари жойлашган бу ҳудудда хизматни бошлаган Чолбой Эшқулов илк кундан бошлаб, ўзи учун маҳалла фуқароларининг хулқ-атворини қайд этиб боровчи махсус кундалик дафтар юритади. Ушбу кундаликда уларнинг манзили, қачон ва қаердан келгани, оилавий аҳволи, турмуш тарзи, даромад манбаи, автомашинаси

бор-йўқлиги, муқаддам судланган ёки судланмагани, маъмурий назоратда туриши, ичкиликка ёки бошқа зарарли одатларга мойиллиги, қонунларга муносабати — барчасини алоҳида бандларда қайд этиб боради.

Собиқ иттифоқ ИИБдан келган текширувчилар унинг фаолиятини ўрганаркан, ноёб кундалик дафтарига қизиқиб қолади. Текширув якунига кўра, криминоген вазиятнинг тезда барқарорлашишига сабаб бўлган бу иш услуби бутун иттифоқ ички ишлар органлари тизимига жорий этилади.

Ғузор (ҳозирги Деҳқонобод) туманининг тоғли Дуоб қишлоғида Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиси Эшқул ота оиласида туғилган Чолбой тумандаги 10-мактабда таҳсил олди. Мактабни битириб, Қарши кооператив техникумида ўқиди. Орада ҳарбий хизматга бориб келди. Хизматдан қайтгач, вилоят ИИБга ҳужжат топширди. Синовлардан муваффақиятли ўтиб, илк фаолиятини 1973 йилда Қарши шаҳар ИИБ ҳузуридаги Қўриқлаш бўлимида оддий милиционерликдан бошлади. Касбига қизиқиши ортиб яна билим ва тажрибасини оширди. 1974–1976 йилларда



Тошкент ўрта махсус милиция мактабида ўқиди. Ўқишдан қайтгач, Косон тумани ИИБга участка инспектори вазифасига тайинланди.

— Ўша йилларда туман ИИБ бошлиғи бўлиб хизмат қилган истеъфодаги полковник Кенжа Арабов, истеъфодаги майор Хидир Назаровлар бизга амалиётда қандай ишлашни ўргатди. Ҳар бир ҳолат бўйича қонуний чора кўриш, ҳужжатларни расмийлаштириш тартибини пухта ўрганганим

туфайли «Қашқадарё» қўрғони (ҳозирги «Шайхали» маҳалласи) да 14 йил участка инспектори лавозимида ишладим, — дейди Чолбой бобо. — Сўнг икки йил вилоят ИИБ ЖООБда катта инспектор, беш йил Қарши шаҳар ИИБ ЖООБ бошлиғи ўринбосари, вилоят ИИБ ҳузуридаги Қўриқлаш бошқармасида бўлим бошлиғи, батальон бошлиғи, Кинология хизмати бошлиғи каби лавозимларда хизмат қилиб, 2001 йилда пенсияга чиқдим.

Хизмат фаолияти давомида «Милиция аълочили» кўрак нишони билан тақдирланган, тизимда қатор шогирдлар етиштирган Чолбой ота турмуш ўртоғи Анор она билан биргаликда уч нафар фарзандни тарбиялаб вояга етказди. Бугун ўғли Икром Эшқулов ИИБ Қоровул қўшинларига қарашли 7533-ҳарбий қисмда катта сержант, бўлинма катта техниги.

Чолбой ота сингари фахрийларимизнинг ҳаёт йўли бугунги авлод учун ҳақиқий мактаб, ёшлар учун эса муносиб ўрнак бўлиб хизмат қилади.

Содиқ РАҲИМОВ,
ўз мухбиримиз.

Қашқадарё вилояти.

Mahalla tinch — yurt obod

SHIRIN SO'Z JAHLDAN TUSHIRADI...

Bugungi kunda vazirlik rahbariyati profilaktika inspektorlari insonlarga yaqin bo'lishi, ularni tinglashi, dardini his qilishi, muammolarini hal qilishga yordam berishi kerakligini uqtirmoqda. Buni yaxshi anglagan Jomboy tumani «Qang'li» mahallasi profilaktika inspektori, leytenant Doston Tog'ayev xizmat qilayotgan mahallasini «yashil» toifada saqlab turishga bor kuch, bilim va tajribasini bag'ishlayapti.

— Ko'pincha bir og'iz shirin so'z jazavada kelgan odamni tinchlantiradi. Bir to'g'ri maslahatdan janjal barham topadi. Odamlar ko'ngliga yo'l topish ularning yuqori idoralarga ariza bilan murojaat qilishining oldini oladi, — deydi Doston Tog'ayev. — Mahalla faollari bilan xonadonma-xonadon yurib, aholining turmush tarzi, yashash sharoiti, oilaviy muhiti bilan yaqindan tanishyapmiz. O'rganishlarimiz rasmiy tekshiruv emas, balki ularning dardini eshitish, muammosini aniqlash va ularni hal etishga ko'maklashish ekanini tushuntiryapmiz.

Ha, inspektor yosh bo'lsa-da, mahallada kim nima bilan shug'ullanadi, mahallaga kimlar kelib, kimlar ketyapti, kim qayerga safarga ketdi, qo'yingki, barcha jarayonni

nazorat qilishga intiladi. Bularni odamlar bilan suhbat jarayonida oddiy savollar berib bilib oladi. Shunga qarab keyingi ishlarini rejalashtiradi, vazifasini belgilab oladi. Ishim tugadi demaydi, kun-u tun xizmatda sergak.

Suhbatimizga qo'shilgan turmush o'rtog'i Feruza Sharipova Doston Tog'ayevning yaxshi ota, namunali oila boshi ekanini, ishi qancha ko'p bo'lsa-da, farzandlari uchun vaqt ajratishini, o'g'li Yusufjon va qizi Shahrizodaning kelajagi uchun hozirdan qayg'urishini aytdi. «O'g'lim otasining kasbini davom ettiraman desa, hech ikkillanmay rozi bo'laman», — dedi F. Sharipova.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.



Karantin xizmati

«YASHIRINCHA SOTISHGA URINMANG ...»



Namangan viloyati IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi xodimlari tomonidan hududiy veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish xizmatlari, sog'liqni saqlash hamda boshqa mutasaddi idoralar bilan hamkorlikda bozorlar va boshqa savdo majmualarida iste'molga yaroqsiz mahsulotlar savdosining oldini olish bo'yicha maxsus tadbirlar uyushtirilmoqda.

Yaqinda Mingbuloq va To'raqo'rg'on tumanlaridagi dehqon bozorlarida go'sht, sut mahsulotlari, tuzlamalar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qiluvchi fuqarolarga veterinariya va

sanitariya talablariga qat'iy rioya etgan holda savdo qilishlari tushuntirildi.

— Faoliyatimiz davomida ayrim shaxslar faqat o'z nafsin o'ylab, sifatsiz, yaroqsiz va iste'molga yaroqsiz mahsulotlarni, hatto o'lgan mol go'shtini yashirincha sotishga urinayotgan holatlar ham aniqlanmoqda, — deydi viloyat IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi komandiri, kapitan Ilhom Jamoldinov. — Albatta aniqlangan yaroqsiz mahsulotlar esa qonunchilikda belgilangan tartibda yo'q qilinib, aybdorlarga nisbatan qonuniy choralar ko'rilmoqda.

Shuhrat RO'ZIYEV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

Jarayon

MANZILLI
XIZMAT

Nurota tumani IIB Migratsiya va personallashtirish guruhi tomonidan biometrik pasportlarni zamonaviy ID-kartalarga almashtirish jarayoni izchil amalga oshirilmoqda. Aholiga qulay bo'lishi uchun ish yuqori saviyada tashkil etilgan. Natijada hech qanday ovoragarchiliklarga yo'l qo'yilmayapti. Joriy yilning o'tgan davri ichida 3263 nafar shaxsga biometrik pasport o'rniga yangi namunadagi fuqaroligini tasdiqlovchi hujjat rasmiylashtirib berildi. Bundan tashqari, 395 nafar yosh yigit-qiz umrida birinchi marta ID-karta oldi.



Shuningdek, guruh xodimlari tomonidan harakatlanish imkoniyati cheklangan fuqarolarga manzilli xizmat ko'rsatish ham yo'lga qo'yilgan. Mazkur xizmat doirasida mutaxassislar ushbu toifadagi fuqarolarning yashash xonadonlariga borib, ularning biometrik



pasportlarini identifikatsion ID-kartalarga, ya'ni O'zbekiston Respublikasi shaxs guvohnomalariga almashtirib bermoqda.

– Keksalik tufayli uzoq joyga borishga qiynalaman. Xodimlar umridan baraka topishsin, uyimga kelib pasortimni almashtirib berishdi, – deydi 87 yoshli Misal momo.

Umar TO'XTAYEV,
kapitan.

Navoiy viloyati.

Hududlarda

OGOHLIK VA BILIM

kiberxavflarga qarshi kurashishda «Jizzax tajribasi»ning asosi

Jizzax viloyatida axborot texnologiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda axborot xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat tashkilotlari va ta'lim muassasalarida axborot tizimlarini himoya qilish, shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish va kiberhujumlarning oldini olish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilayotir. Bu borada viloyat hokimining «Jizzax viloyatida axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ushbu faoliyatda yangi bosqich boshlanganini ko'rsatadi.

SOHA TANLAB OLINDI

– Viloyat IIB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi tomonidan viloyatdagi umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari bilan tizimli ish olib borildi. Chunki 2025-yil 10 oyi tahlillari kiberjinoyatlaridan eng ko'p jabrlangan qatlam aynan o'qituvchilar ekanligini ko'rsatdi, – deydi Jizzax viloyati IIB ATSJQKB boshlig'i, podpolkovnik Sherzod Qosimov. – Bunga sabablar sifatida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish ko'nikmasining pastligi, shubhali havolalar va qo'ng'iroqlarga ishonish, moliyaviy operatsiyalarda ehtiyotsizlik kabi omillarni keltirish mumkin.

Targ'ibotda shu jihatga alohida e'tibor qaratildi va keng ko'lamli profilaktik tadbirlar olib borildi. Noyabr oyidan boshlab umumiy o'rta ta'limni «qizil» guruhdan chiqarish maqsadida har bir tumanda informatika o'qituvchilari va maktab direktorlari ishtirokida tushuntirish-targ'ibot seminarlari o'tkazildi. Ular orqali 566 ta maktabning 40 ming nafarga yaqin xodimiga kiberxavflardan ogohlik qoidalari yetkazildi.

Targ'ibot tadbirlari tijorat banklarida ham davom etmoqda. Bank xodimlari tomonidan mijozga plastik karta topshirishidan oldin internetdan to'g'ri foydalanish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, fishing va boshqa kiberhujum turlaridan saqlanish kabi mav-

zularda tushuntirishlar berilib, boshqarmamiz tomonidan tayyorlangan flayerlar tarqatilyapti. Har bir xizmat ko'rsatiladigan nuqtada bank plastik kartasini xavfsiz ishlatish, firibgarlikdan ogohlantiruvchi eslatmalar ko'rinarli qilib joylashtirildi.

JAC – «Jizzax Anticirus Cyber» bot haqida alohida to'xtalish zarur. Mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan ushbu



bot IIVning «Sybershielduz.bot»ga bog'landi. Uning yordamida viloyatdagi 1207 telegram guruhlaridagi 3 yarim mingdan ziyod viruslar aniqlandi va ushbu zararli dasturlar o'chirilib, qariyb 300 ming nafar aholining .apk viruslaridan zararlanishining oldi olindi. O'tgan yil yakunida kibermadaniyatni oshirish va ogohlikni kuchaytirish maqsadida aholi va OAV o'rtasida tanlov tashkil etildi. Eng faol targ'ibotchilar viloyat hokimligining diplom va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi.

BILIM OLISH ZARURAT

Shu o'rinda yuqorida tilga olingan viloyatga tegishli qaror ijrosiga ham to'xtalib o'tish lozim. Ayni vaqtda idora va

tashkilotlarda kibergigiyena ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan oflayn yoki onlayn formatda qisqa o'quv kurslari tashkil etildi. O'qitilgan tashkilot rahbarlari va xodimlari tegishligi bo'yicha quyi tizim tashkilotlarida «Kiberxavfsizlik soati» mashg'ulotlarini tashkil etishi belgilangan. Yakunda ishtirok etganlarning bilim darajasini baholash imkoniyatini beruvchi test sinovlari o'tkaziladi.

Yaqinda bu kabi amaliy chora-tadbirlarni keng miqyosda ommalashtirish va «Jizzax tajribasi»ni amaliyotga joriy etish maqsadida Jizzax shahrida amaliy seminar tashkil etildi. Respublikamizning barcha hududlaridan soha mutasaddilari va mas'ullari ishtirok etgan bu tadbirda erishilgan natijalar

bilan yaqindan tanishildi. Jumladan, «Zargarlik» mahallasida aholi bilan bevosita muloqot asosida olib borilayotgan profilaktika ishlari samarali usul sifatida e'tirof etildi. Bu yerda har bir xonadonga tushuntirish ishlari olib borilib, oddiy, ammo muhim qoidalar yetkazilmoqda.

Ta'kidlash joizki, Jizzax viloyati IIB tomonidan ishlab chiqilgan strategiyalar va dasturlar hududda axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. «Jizzax tajribasi» kelgusida boshqa hududlar uchun ham namuna bo'lishi mumkin.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

Nuqtayi nazar

KELAJAK KEMASINI CHO'KTIRMAYLIK

TARIXNING ACHCHIQ SABOG'I

Insoniyat tarixi shuni ko'rsatadiki, yuksalish ham, tanazzul ham avvalo insonning ichki dunyosidan boshlanadi. Ba'zan ulkan imperiyalar ham birgina xato, birgina kibr yoki birgina beparvolik tufayli qulab tushgan. 1912-yilda Atlantika okeanida halokatga uchragan «Titanik» layneri ham ana shunday ogohlantiruvchi timsollardan biridir.

O'sha paytda u dunyoning eng yirik, eng hashamatli va eng zamonaviy kemasi sifatida e'tirof etilgan edi. Ayrimlar «uni hatto Tangri ham cho'ktira olmaydi», degan g'ururli da'volarni ham aytishgan. Ammo tabiatning oddiy bir muz tog'i oldida insonning bu kibrli ishonchi chil-parchin bo'ldi. Bir necha soat ichida ulkan layner suv qa'riga ketdi, minglab insonlar halok bo'ldi.

Bu voqea tarixda shunchaki dengiz fojiasi bo'lib qolmadi. U insoniyatga juda chuqur bir haqiqatni eslatdi: moddiy qudrat qanchalik ulkan bo'lmasin, ma'naviy hushyorlik bo'lmasa, u baribir halokatga yuz tutadi.

Bugun oradan bir asrdan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, «Titanik» sabog'i insoniyat uchun hanuz dolzarbdir. Chunki tarixning eng og'ir fojialari ko'pincha tashqi kuchdan emas, balki ichki beparvolikdan boshlanadi.

KO'RINMAS, AMMO XAVFLI

Bugungi zamon texnologiya, axborot va imkoniyatlar asri. Insoniyat ilm-fan va texnika yutuqlari bilan mislsiz darajada oldinga siljimoqda. Ammo ayni paytda jamiyat oldida ko'rinmas, juda xavfli bir «muz tog'i» ham paydo bo'lmoqda. Bu — ma'naviy beparvolik va ruhiy bo'shliqdir.

Agar jamiyat moddiy taraqqiyot ortidan quvib, ma'naviy poydevorini unutsa, bu holat kemanding yo'lida paydo bo'lgan muz tog'idan ham xavfliroq bo'lishi mumkin. Chunki moddiy halokat ko'zga ko'rinadi,

ma'naviy tanazzul esa sekin, sezilmas tarzda kirib keladi.

Bugun globalashuv shamollari butun dunyoni qamrab olgan. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, ekranlar orqali turli g'oyalar yoshlar qalbiga kirib bormoqda. Afsuski, ularning hammasi ham ezgulik va ma'naviyatga xizmat qilavermaydi. Zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi filmlar, yengil hayotni ulug'lovchi madaniyat, o'zlikni inkor etishga undovchi qarashlar asta-sekin yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Natijada ayrim yoshlar haqiqiy qahramonlik nima ekanini unutib, soxta «ideal»larga ergashib qolish xavfi tug'ilmoqda.

O'Z ILDIZIDAN KUCH OLGAN MILLAT

Vaholanki, bizning tariximiz va ma'naviy merosimiz bunday soxta timsollarga ehtiyoj qoldirmaydigan darajada boydir. Bu yurt davlatni adolat bilan boshqarish namunasi bo'lgan Amir Temur, Vatan erkinligi uchun jonini tikkan Jaloliddin Manguberdi, ilm va haqiqatning nurini butun dunyoga taratgan Imom al-Buxoriy kabi ulug' zotlarni yetishtirgan zamin. Ularning hayoti mardlik, vijdon, sadoqat va e'tiqod maktabidir.



liga kirib qolishi kerak? Bu savollar bugun har bir ota-ona, ustoz va murabbiy oldida turgan muhim masalalardandir.

JAMIYATNING MA'NAVYI QAL'ASI

Jamiyatning kelajagi avvalo oila shakllanadi. Oila — bu insonning ilk maktabi, vijdonining shakllanish maskani, mehr va mas'uliyatni o'rgatuvchi muqaddas makondir.

Agar farzand ota-ona mehridan, samimiy suhbatdan, ruhiy yaqinlikdan mahrum bo'lsa, uning qalbida bo'shliq paydo bo'ladi. Bu bo'shliq esa albatta boshqa, ko'pincha yot g'oyalar bilan to'ldiriladi.

Buyuk jaded ma'rifatparvari Abdurauf Fitrat o'zining «Oila» asarida bejiz shunday demagan: «Kim badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga dushmanlik qilgan bo'ladi».

Bu fikrning tagida chuqur ma'no yotadi. Chunki bugun tarbiyalanayotgan bola ertaga jamiyatni boshqaradi, uning yo'lini belgilaydi. Demak,

har bir ota-ona aslida nafaqat o'z farzandini, balki kelajak jamiyatini ham tarbiyalayotgan bo'ladi.

XULOSA O'RNIDA

Haqiqiy muvaffaqiyat faqat boylik orttirishda emas. Boylik vaqtinchalik bo'lishi mumkin, mansab ham o'tkinchi. Ammo pokiza vijdon, mustahkam e'tiqod va yuksak odob insonni har qanday sinovdan olib o'ta oladigan kuchdir.

Farzandlarimizga eng katta meros — bu moddiy boylik emas, balki toza nom, halol mehnatga muhabbat va o'zligini anglashdir. Chunki inson uchun eng katta kashfiyot — bu o'zini, o'z ildizini va o'z mas'uliyatini anglashdir. Agar jamiyat ana shu qadriyatlarga tayanib yashasa, hech qanday «muz tog'i» uning yo'lini to'sa olmaydi.

Bugun har birimiz o'zimizga bitta savol berishimiz kerak: biz kelajak sari suzayotgan ma'naviy kemamizni qanchalik hushyorlik bilan boshqaryapmiz? Agar oilada mehr, tarbiyada mas'uliyat, jamiyatda esa ma'naviyat ustuvor bo'lsa — bu kema albatta xavfsiz manzilga yetadi.

Ammo beparvolik, loqaydlik va ma'naviy bo'shliq hukm sursa, tarixdagi «Titanik» fojiasi boshqa bir ko'rinishda yana takrorlanishi mumkin.

Shuning uchun ham har bir vijdonli inson o'z qalbida bir haqiqatni saqlashi lozim: kelajak tasodifan yaratilmaydi. U bugun ekilayotgan tarbiya urug'laridan unib chiqadi. Demak, ma'naviy «Titanik» fojiasiga yo'l qo'ymaslik butun jamiyatning muqaddas burchiga aylanmoq.

Muhayyo SULTONOVA,
Uchqo'rg'on tumani
ixtisoslashtirilgan maktab
o'qituvchisi.

Namangan viloyati.



SHIFOKORLAR OILASIDAN CHIQQAN CHEMPION

Surxondaryo – azaldan polvonlar yurti, mardlik va jasorat maskani sifatida tanilgan. Bu zaminda sport nafaqat jismoniy tarbiya, balki milliy g'urur va avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan muqaddas an'anadir. Ana shunday an'analar ruhida tarbiya topgan lavhamiz qahramoni – Kosiki karate bo'yicha Jahon chempioni, safdor Salohiddin Tursunovdir.

OILAVIY MUHIT VA TANLOV

Salohiddin 1996-yil 20-noyabr kuni Denov tumanida, shifokorlar oilasida dunyoga keldi. Otasi Nuriddin Meliboyev – tajribali endokrinolog, onasi Toira Meliboyeva esa ko'p yillardan buyon hamshira sifatida insonlar salomatligi yo'lida xizmat qilib kelishmoqda. Akasi va opasi ham ota-ona izidan borib, tibbiyot sohasini tanlashgan.

Bunday muhitda ulg'aygan Salohiddindan ham shifokor bo'lishi kutilgan edi. Biroq Surxon vohasining keng adirlari va polvonlar davrasidagi suhbatlar uning qalbidagi sportga bo'lgan kuchli mehrni uyg'otdi.

TA'LIM VA XIZMAT

Sportga bo'lgan ishtiyoq uni Toshkent davlat jismoniy tarbiya va sport universitetiga yetakladi. 2021-yilda o'qishni muvaffaqiyatli tamomlagan Salohiddin nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham puxta egalladi.

Bugungi kunda u poytaxtimizdagi IIV «Jar» sport-sog'lomlashtirish kompleksi qo'riqlash guruhida faoliyat yuritmoqda.



CHO'QQI SARI YO'L

Salohiddinning zafarlari ortida tinimsiz mehnat va ustozlarining o'g'itlari yotibdi. U sportning sir-asrorlarini karate bo'yicha

6-dan qora belbog' sohibi Doniyor Toshmuxamedov va qo'l jangi sport ustasi Mahmudjon Suyarov kabi tajribali murabbiylardan o'rgandi.

Joriy yilning 3–5-aprel kunlari Toshkent shahrida o'tkazilgan Kosiki karate bo'yicha Jahon chempionati Salohiddin uchun shon-sharaf daqiqalarini taqdim etdi. U kumite yo'nalishida, -85 kg vazn toifasida barcha raqiblarini mag'lub etib, oltin medalni qo'lga kiritdi.

Bu uning yagona yutug'i emas. Uning hisobida: «Tashkent Open» chempionatining bronza medali (fudokan, shotokan va kosiki yo'nalishlari bo'yicha), O'zbekiston chempionatida 2-o'rin, O'zbekiston kubogida I darajali diplom (fudokan karate), Yevrosiyo chempionati g'olibligi ham bor.

– Mening har bir g'alabam zamirida ota-onamning duosi va cheksiz ishonchi yotibdi, – deydi safdor Salohiddin Tursunov. – Ilk musobaqamda mag'lub bo'lib tushkunlikka tushganimda, otam: «Polvon yiqilganida emas, kurashdan to'xtaganida mag'lub bo'ladi», deb ruhlantirgan edilar. Onam esa har safar gilamga chiqishimdan oldin qo'ng'iroq qilib, duo qiladilar. Jahon chempionatida shohsupaga ko'tarilganimda, bo'ynimdagi oltin medalni ko'rib, eng avvalo, ularning yuzidagi quvonchni tasavvur qildim. Mening eng katta mukofotim – ota-onamning men bilan faxrlanishidir.

Madina QAHHOROVA,
katta leytenant.

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(20 – 26 апрель)

Қўй (21.03 – 20.04). Бу ҳафта режадаги барча юмушларни ўз вақтида бажаришга урининг. Бироқ ишга киришишдан олдин унинг нечоғлик аҳамиятли ва фойдали эканини жиддий ўйлаб кўринг. Ҳафтанинг иккинчи ярми иш фаолияти билан боғлиқ келишувларни амалга ошириш учун мақбул вақт.

Бузоқ (21.04 – 20.05). Мазкур ҳафта хайрли ва ёқимли кечади. Истиқболдаги режаларингиз айнан шу даврда ҳақиқатга айланиши мумкин. Бу кимларгадир ёқмаслиги мумкин, лекин асло эътибор қаратманг, кайфият ва шижоатни энг юқори даражада ушлаб, ўз устингизда ишлашда давом этинг.

Эгизаклар (21.05 – 21.06). Ҳафта мартабангиз ошишига тўққинлик қилаётган барча муаммоларни бирма-бир йўқ қилиш учун қулай давр. Йирик харидлар ва шахсий иш билан яқин манзилга сафар қилиш омадли кечиши кутилмоқда. Эртанги кун учун ҳам jismoniy, ҳам руҳий қувватни сақлаб қолишга урининг.

Қисқичбақа (22.06 – 22.07). Катта тажрибага эга одамларнинг маслаҳатларига жиддий эътибор қаратинг. Ҳафта давомида барча ишларни тўғри тақсимлашга ҳаракат қилинг. Ҳафта бошида ҳушёр бўлинг: яқинларингиз сизга панд бериши мумкин.

Арслон (23.07 – 23.08). Қийин ва мушкул ишларга фақат суянчингиз бўлсагина киришинг. Айрим вазифалардан воз кечишга тўғри келади. Бу даврда берилган қарз қўлингизга анча муддат ўтиб қайтишини инobatга олинг. Бу ҳафтада режалаштирилган барча юмушлар кўнгилдагидек амалга ошади.

Паризод (24.08 – 23.09). Келаётган ҳафтада соғлиқ ҳолатингизга алоҳида эътибор қаратинг. Иш жойида кўпгина ютуқларни қўлга киритасиз. Пайшанбада муҳим янгилик эшитасиз. Дам олиш кунлари сиз учун асабий кечиши мумкин.

Тарози (24.09 – 23.10). Бу ҳафта яхшигина пул ишлаб олиш таклифи келиб тушса, бундай имкониятдан фойдаланиб қолинг. Яқинлар билан муносабатда одатдагидан мулойимроқ ва меҳрибон бўлинг. Уларга айна дамда сизнинг қўллаб-қувватлашингиз жуда зарур.

Чаён (24.10 – 22.11). Соғлиққа эътиборли бўлинг, чунки шу кунларда жароҳат олиш ёки эски хасталикларнинг қайталаниши кузатилиши мумкин. Бу даврда маиший масалаларни ҳал этиш билан овора бўласиз. Ҳафтанинг сўнгги кунлари жиддий харидлар ва сармоя киритиш учун қулай пайт.

Ўқотар (23.11 – 21.12). Асосий вазифа ва мажбуриятларингизни унутиб қўйманг. Сиз учун сешанба энг самарали кун бўлиб, фойдали ва истиқболли ишларга қўл урасиз. Бунда ҳеч иккиланмай бор истеъдодингизни ишга солинг. Ҳафта сўнггида режада бўлмаган харажатлар кузатилиши мумкин.

Тоғ эчкиси (22.12 – 20.01). Ҳафтанинг иккинчи ярмида таранг асабларни бўшаштиринг, ижодий режаларни амалга ошириш ҳақида ўйланг. Ҳафта сўнггида оила даврасида мароқли ҳордиқ чиқаринг. Бу давр иш муносабатларини мустаҳкамлаш учун қулай пайт.

Қовға (21.01 – 19.02). Шу ҳафтада ҳаётингизда муҳим ўзгариш содир бўлади. Ишингизга диққат-эътиборли бўлинг. Бу, албатта, ўз самарасини беради. Иқтисодий томондан рағбатлантиришлар кайфиятингизни янада кўтаради. Умуман олганда, ҳафта жуда баракали келади.

Балиқ (20.02 – 20.03). Ушбу ҳафта савдо-сотик билан шуғулланувчиларга бироз дилхиралиklar келтириши мумкин. Кўпдан бери сиз билан ҳамкорлик қиладиган танишлардан ҳам эҳтиёт бўлинг. Чув тушиб қолиш эҳтимоли бор. Шунинг учун бу ҳафтани оилангиз даврасида, яқинларингиз билан ўтказганингиз мақсадга мувофиқдир.

Саломатлик сабоқлари

ХАВФЛИ ЮҚУМЛИ КАСАЛЛИК

Менингококк инфекцияси турли клиник симптомлар билан кечадиган хавфли юқумли касаллик бўлиб, у бактерия ташиб юрувчи, фарингит, йирингли менингит, менингококкцемия ва менингоэнцефалит каби шаклларда намоён бўлади. Ушбу касаллик қўзғатувчиси – менингококк бактериялари илк бор 1887 йилда бактериолог Вексельбаум томонидан кашф қилинган. Менингококк инфекциясининг А, В, С, D, Y турлари мавжуд. Улар ташқи муҳитга чидамсиз, қуёш нурлари ва совуқ ҳаво таъсирида тез ҳалок бўлади. Оддий дезинфекция воситалари (фенол, хлорамин, оҳак эритмаси) менингококкларни бир неча дақиқа ичида нобуд қилади.

Инфекция манбаи – бактерия ташиб юрувчилар ва бемор ҳисобланади. Касаллик, айниқса, қиш ва баҳор фаслида (февраль-май ойларида) кўпаяди. У асосан ҳаво-томчи йўли орқали юқиб, бурун ва ҳалқум шиллиқ қавати орқали организмга киради. Менингококк инфекцияси юққанларнинг 20–30 фоизида касаллик ҳеч бир аломатсиз ёки ринофарингит кўринишида бошланади. Бироқ айрим ҳолларда менингококклар гемато-ликвор тўсиғини ошиб ўтиб, бош миянинг юмшоқ пардасини зарарлайди ва бу менингит касаллиги ривожланишига олиб келади.

Яллиғланиш жараёнида бош миянинг асос қисми йиринг билан



қопланади ва мия қон томирлари зарарланиши оқибатида эндокардит ва панфлебит юзага келади.

Бош мия қонга тўлиб, шишади ва кўп жойига қон қуйилади. Мия қоринчаларида йиринг тўпланади. Бош ва орқа мия зарарланиши туфайли энцефалит, миелит симптомлари пайдо бўлади (фалаж, тутқаноқ тутиши, психика бузилиши кузатилади).

Юқумли касалликнинг инкубацион, яъни яширин даври 1 кундан 10 кунгача чўзилади. Менингококк

инфекциясининг энг кўп учрайдиган тури ўткир назофарингит ҳисобланади. Қисқа муддатда ҳарорат субфебрил даражада кўтарилиб, интоксикация бўлади. Беморда бош оғриғи бошланиб, томоқ қичишиши, қуруқ йўтал, бурун битиши билан кечади. Баъзи ҳолларда интоксикация кучлироқ бўлса, ҳарорат 5–7 кунгача чўзилади. Беморнинг боши айланиб, кўнгли айнийди, тана мускулларига ҳам оғриқ киради.

Шамоллаш, йўтал ва бошқа ўткир респиратор касалликлар аломатлари билан кечадиган ҳар

қандай белгида шифокорга мурожаат қилиш, унинг тавсияси билан даво муолажалари олиш тавсия этилади. Ўзбошимчалик билан ҳар хил дори воситаларини қабул қилиш оғир асоратлар келтириб чиқариб, ҳаттоки ўлимга олиб келиши мумкин.

Менингококк инфекцияси туридан қатъи назар бемор юқумли касалликлар касалхонасига жойлаштирилади. Болалар жамоаларида бемор билан мулоқотда бўлганлар тиббий назоратга олинади ва кўрикдан ўтказилади. Улар орасида бактерия ташиб юрувчилар аниқланса, керакли даво муолажалари буюрилади. Касаллик қайд этилган бино, бемор ётган хонада якуний дезинфекция ишлари амалга оширилади.

Юқумли менингит касаллигининг олдини олишда энг самарали махсус профилактика усулларида бири Ўзбекистон Республикасида қабул қилинган Миллий эмлаш календариди белгиланган тартибда (юқумли менингит касаллиги қайд этилганда) эпидемиологик кўрсатмага биноан бемор билан яқиндан мулоқотда бўлганларга нисбатан эмлаш тадбирлари ўтказилади. Бу орқали инсонларни ногиронликдан сақлаб қолиш ҳамда ўлим кўрсаткичларини камайтириш мумкин бўлади.

Хусанхўжа УЛИХОДЖАЕВ,
ИИБ СЭНБМ катта мутахассис
шифокор-эпидемиологи,
майор.



Здоровье

Кабачок: легкость и польза

Иногда организму хочется простоты. Без тяжелой еды, сложных сочетаний и лишней нагрузки. В такие моменты отлично выручает кабачок.

После приготовления он становится мягким и нежным, легко усваивается и не вызывает ощущения тяжести. Именно поэтому блюда из кабачка часто выбирают, когда хочется легкости и комфорта.

Домашняя кабачковая икра простой и удобный вариант на каждый день. Тушеные кабачки с овощами сохраняют витамины, пектины и калий, при этом не вызывают тяжести. Лучше готовить без обжарки, с минимальным количеством масла. Достаточно потушить овощи до мягкости и измельчить.

Если хочется еще более мягкого варианта, подойдет пюре из кабачка. Оно буквально тает по текстуре, легко усваивается и дает ощущение спокойствия внутри. Готовится очень просто: отварили, взбили, добавили щепотку соли и немного масла.

Такие блюда хорошо вписываются в дни, когда хочется «перезагрузить» питание и дать себе немного больше заботы.



Поддержка организма

Льняное масло – хороший растительный источник омега-3. Эти жиры помогают уменьшить воспаление в стенках сосудов, делают их эластичными и снижают уровень триглицеридов в крови.

Прием масла в течение 1–2 месяцев помогает поддерживать здоровье сосудов, снижает риск образования холестериновых бляшек и тромбов, а также уменьшает вероятность атеросклероза, гипертонии и инфаркта.

Льняное масло не нагревают. Его добавляют только в уже готовые блюда – салаты, каши, теплые овощи. Хранить нужно в темной бутылке в холодильнике. Достаточно 1–2 столовых ложек в день.

Не рекомендуется употреблять при диарее, острых заболеваниях кишечника, индивидуальной непереносимости, а беременным и детям прием льняного масла следует согласовать с врачом.



Если часто мерзнут ноги

Согреться изнутри помогут специи и продукты. Добавляйте в блюда имбирь, корицу, кардамон, куркуму или черный перец. Они улучшают кровообращение и помогают согреться.

Следите за белком и железом. Холодные ноги могут быть признаком легкой анемии или нехватки строительного материала для крови. Включите в свой рацион гречку, красное мясо, печень, яблоки и гранат.

Не забывайте о полезных жирах и сложных углеводах: орехи, топленое масло, тыквенная каша или печеный картофель дают организму энергию для тепла. Пейте теплые напитки – имбирный чай, какао или компот из сухофруктов с корицей. Избегайте ледяных напитков. Они вызывают спазм сосудов и усиливают ощущение холода.



Сиз кутган учрашув

Ўзбекистон халқ артисти, «Маданият ва санъат фидокори» кўкрак нишони соҳибаси Гулсара Ёқубова 1937 йили Хоразм вилоятининг Урганч шаҳрида туғилган. Тошкент театр ва рассомлик санъати институтини тамомлаган. Ўзбек давлат филармонияси қошидаги Хоразм ашула ва рақс ансамблида, шунингдек, Муқимий номидаги Ўзбекистон давлат академик мусиқали театрида фаолият юритган. Санъаткор ижодида, айниқса, «Лазги» ашула ва рақс ансамбли алоҳида ўрин тутди. У ансамблда яккахон хонанда бўлган, кейинчалик жамоага раҳбарлик ҳам қилган.



САНЪАТ САОДАТИМДИР

Гулсара Ёқубованинг концерт репертуари асосан хоразм лапарлари, халқ қўшиқлари ҳамда ўзбек бастакорлари асарларидан ташкил топган. Санъаткорнинг «Бобойжоним», «Ёшлар вальси», «Милиционер ёрим бор», «Далалар сўлим-сўлим», «Хива дилбари», «Омон-омона геддик» қўшиқлари жуда машҳур бўлган.

– Гулсара опа, кечагина бир кам тўқсон баҳорни қарши олдингиз. Аввало, сизни қутлуғ ёшингиз билан табриклаймиз. Келинг, фурсатдан фойдаланиб болалик даврларингизни эсласангиз...

– Болалигим уруш йилларига тўғри келиб, жуда оғир кечган. Отам урушга кетиб, афсуски, қайтиб келмаган. Онам ёлғиз ўзи тўрт болани катта қилган. Очарчилик йиллари ейишга нонимиз, кийишга кийимимиз етмаган кунлар кўп бўлган. Айрим пайтларда ҳатто мактабга бориш имконияти ҳам бўлмаган. Онамнинг меҳри ва муҳаббати олдида доимо таъзимдаман.

Отам ҳақида эса хотиравларим жуда кам. Лекин бир воқеа сира ёдимдан чиқмайди. Ҳовлимизга қариндош-уруғлар отамни фронтга кузатиш учун йиғилишган. Аммам менга атласдан жуда чиройли кўйлак тикиб келганди. Ўшанда тўрт-беш ёшларда эдим. Уйимизда патифон бор эди. Отам Тамарахонимнинг пластинкасини кўйди ва барча меҳмонлар олдида мени рақсга тушириб, ҳавас билан томоша қилди. Сўнгра: «Қизим, сен албатта артист бўлишинг керак. Менинг қизим ҳали машҳур санъаткор бўлади», деди.

– Демак, отангизнинг ўша сўзларидан кейин сизда санъаткор бўлишга,

ишонч ва интилиш пайдо бўлган экан-да?

– Албатта! Урганч шаҳридаги 1-сонли мактабда ўқиганман. Баҳоларим аъло бўлган, турли тадбирлар ва ташкилий ишларда фаол иштирок этардим. Рус тили ўқитувчимиз Елизавета Петровна менга жуда кўп русча қўшиқлар ўргатган. Кейин эса қозоқча, грузинча қўшиқларни ҳам ўрганиб олдим.

Мен мактабимизда бадий жамоасининг фаол аъзоси эдим. Пахта далаларида, сиҳатгоҳлар, боғчалар ва меҳрибонлик уйларида концертлар қўйиб, одамларга хушқайфият улашиб юрганмиз. Болалик даврларим эсласам, маҳалламизда яшаган Санъат Девонов, Султонпошша Раҳимова, Матёқуб Раҳимов каби кўплаб санъаткорлар кўз олдимдан ўтади. Мактабимиздан икки кўча нарида Огаҳий номидаги Хоразм вилоят мусиқали драма театри жойлашган эди. У ерда кўплаб машҳур инсонларни кўриб,



санъатга бўлган қизиқишим янада ортган.

– Ўқитувчилик даврингиздаёқ VI Жаҳон ёшлари фестивалида муваффақиятли иштирок этгансиз...

– Ўшанда 10-синфни битираётган пайтларим эди. Ўзбекистон халқ артисти Гавҳар Раҳимова Хоразмга келиб, иқтидорли ёш хонанда, раққоса ва қизиқчи ўқувчиларни мактаблардан саралаб, ҳаммамизни бир жойга жамладилар. Саралаш натижасида «Лазги» ансамблига 25 нафар йигит-қиз танлаб олинди. Бизни Москвада бўлиб ўтадиган VI Жаҳон ёшлари фестивалига тайёрладилар. Ана шу жамоада Марям Ихтиёрова билан танишиб, қадрдон дугоналарга айландик.

Фестивалда «Лазги» ансамблимиз 2-ўринни эгаллади. Шунингдек, айрим иштирокчилар алоҳида рақс ва қўшиқлари билан лауреат бўлишди. Кейинчалик бизни яна Москвада ўтказиладиган «Ўзбекистон санъати ва маданияти» декадасига таклиф қилишди. Гавҳар опа ансамблни Комилжон Отаниёзовга топширдилар. Комилжон ака эса бизни пухта тайёрлаб, жамоага бошчилик қилиб, ўзи билан бирга олиб борди.

– Устозларингизни ҳам эсга олсак...

– Биринчи устозим Жуманазар Собиров эди. Шунингдек, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Зоя Гаффа-

ровадан ҳам хоразм рақс сирлари, қўшиқ ва лапарларини ўрганганман.

Кўпчиликни устозим деб фахр билан айта оламан. Айниқса, Гавҳар Раҳимова мен учун нафақат устоз, балки онамдек суюкли ва меҳрибон инсон эди. Мен билан Марямнинг Тошкент театр ва рассомлик санъати институтига ўқишга киришимизга ҳам айнан у сабабчи бўлган. Мени санъат оламига олиб кирган, иқтидор ва маҳоратимни юзага чиқаришимга туртки бўлган, ўз устимда ишлашга ундаган ва доим кўллаб-қувватлаган.

«Лазги» ансамбли тарқаб кетган даврлар ҳам бўлди. Шунда Марям иккимизни устозимиз Раззоқ Ҳамроев Муқимий номидаги Ўзбекистон давлат мусиқали театрига олиб келди. У ерда 12 йил фаолият юритдим.

– Шогирдларингиз-чи?

– Шогирдларим ҳам анча. Жумладан, Нуржаҳон Сатторова, Мавлуда Ойнакулова, Олмагул Суюрбоева каби санъаткорлар бор. Ҳозирда энг ёш шогирдим — Назокат Жабборова, у «Лазги» ансамблида фаолият олиб бормоқда. Ўргатган ашулаларимни ижро этиб юрибди.

– Сизни халққа танитган қўшиқларингиздан «Бобойжоним»нинг яратилиш тарихи қандай бўлган?

– «Бобойжоним» қўшиғининг асл ижрочиси — Ўзбекистон халқ артисти Бикажон Раҳимова. Қўшиқ тарихи ҳақида айтадиган бўлсам, у 1959 йилларда бир спектакль учун Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист, бастакор Абдушариф Отажонов томонидан халқ сўзлари асосида яратилган.

Кейинчалик, 1980 йилда «Лазги» ансамблининг бадий раҳбари, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Раҳматжон Курбонов таклифи билан ушбу қўшиқни Отамурод Ҳожиев билан бирга қайта ижро этганмиз. Қўшиқ жуда муваффақиятли чиққан. Ҳар бир концертда томошабинлар такрор-такрор сўрашарди. Ижроим Бикажон Раҳимовага ҳам жуда ёққан экан. Бир сафар Хоразмда концерт бераётганимизда, опанинг ўзлари келиб, дуо бериб, оқ йўл тилаганлар.

– Айнан бизнинг тизимга тегишли бўлган яна бир

машҳур қўшиғингиз ҳам бор...

– «Милиционер ёрим бор»ни назарда тутяпсизми? Ҳа, тўғри. Ўзбекистон халқ артисти, устозим ва бастакор Муҳаммаджон Мирзаев билан ҳамкорликда ушбу қўшиқни ички ишлар органлари ходимлари кунига бағишлаб тайёрлаганмиз. Бу қўшиқни Навоий вилоятидаги стадионда куйлаганимда, атрофимизда хавфсизликни таъминлаб турган бир неча ходим бор эди. Қўшиқдаги: «Милиционер ёрим бор, менинг ширин жоним бор, посбоним бор», деган сатрларни куйлаётганимда, бир ходимнинг турмуш ўртоғи: «Нега менинг эримга қараб куйлаяпсиз?» – деб бироз аразлаб ҳам қолган эди.

Биласизми, мен бутун умримни санъатга бағишладим. Агар қайта туғилсам, ҳеч иккиланмай яна санъатни танлардим. Чунки санъат менинг нафасим, қалбимнинг садоси, ҳаётимнинг мазмунига айланди. Саҳнада ўтган ҳар бир лаҳза, тингловчилар кўзларидаги ёруғликни, қалбларидаги туйғуни ҳис этиш мен учун энг катта бахт эди. Яширмайман, қийинчиликлар ҳам, чарчоқли кунлар ҳам бўлди. Аммо санъатга бўлган муҳаббатим ҳеч қачон сўнмади. Ҳар бир қўшиғимда ўз қалбим кўрини қолдирдим, ҳар бир образимга бутун меҳримни бахшида этдим.

– Мазмунли суҳбатингиз учун ташаккур!

Р/С: Биз суҳбатни Гулсара Ёқубованинг хонадонларида ташкил этдик. У киши ўтган асрнинг 60-йилларида Муқимий номидаги Ўзбекистон давлат академик мусиқали театри томонидан берилган кўп қаватли уйнинг бешинчи қаватида истиқомат қилаётганларига гувоҳ бўлдик. Миллий санъатимизнинг табаррук ёшдаги фидойиси ўзига пастки қаватлардан уй ажратилиши ҳақидаги эзгу ниятини қайта-қайта таъкидлади. Ишонамизки, бутун умрини санъатимиз ривожига бағишлаган бу мўътабар онахоннинг эзгу ниятлари, албатта, ижобат бўлади.

Ўз мухбиримиз
Адолат ФАЙЗИЕВА
суҳбатлашди.

Izboskan tajribasi

JINOYATSIZ MUHIT SARI

Hududlarni tinch va xavfsiz maskanga aylantirish bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, barqarorlik ta'minlangan joyda taraqqiyotga zamin yaratiladi. Aholi o'z kelajagiga ishonch bilan qaraydi, yoshlar ta'lim olishga intilsa, tadbirkorlar faoliyatini kengaytirishga harakat qiladi. Aksincha, jinoyatchilik avj olgan muhitda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish ham, ma'naviy muhit ham izdan chiqishi tabiiy. Shu bois huquqbuzarliklarning oldini olish va xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Jinoyat sodir etish omillarini birgina sabab bilan izohlab bo'lmaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aksariyat holatlarda bu ijtimoiy muammolar bilan bog'liq. Xususan, ishsizlik, barqaror daromad manbayining mavjud emasligi, oilaviy kelishmovchiliklar, jamiyatdagi befarqlik kabi omillar insonni xato yo'lga yetaklashi mumkin. Shuningdek, ayrim hollarda inson dardiga quloq tutilmasligi, e'tibor yetishmasligi ham uning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, jinoyatchilikka qarshi kurashishda faqat jazo choralari emas, balki uning kelib chiqish sabablarini bartaraf etish muhim ahamiyatga ega.

Bu borada Izboskan tumanida amalga oshirilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq. Ma'lumki, ushbu tuman o'tgan yilda kriminogen holati murakkab hududlar

magan bo'lsa-da, tizimli va manzilli ishlar samara berdi. Joriy yilning shu davriga kelib, jinoyatlar soni o'tgan yilga nisbatan 32,2 foizga qisqargani buning amaliy natijasidir. Bu raqam ortida esa keng qamrovli ishlar, aholi bilan doimiy muloqot va muammolarni joyida hal etish mavjud.

— Masalan, «To'rtko'l» qishlog'i hududidagi vaziri



Profilaktika bosh inspektori, kapitan Abdullo Madumarov profilaktika inspektori, leytenant Odiljon Nasibjonov bilan.

riq» toifaga kiritilgan, ya'ni xavf darajasi yuqori hudud sifatida baholangan edi. Biz bu holatga shunchaki statistika sifatida qaramadik. Har bir mahalla, har bir xonadon kesimida o'rganishlar olib borildi. Mas'ullar uyma-uy

son doimiy ishga ega bo'lsa, daromad manbayi bo'lsa, u o'z kelajagini barqaror ko'radi. Bunday sharoitda jinoyat yo'li emas, halol mehnat ustuvor bo'ladi.

— Ichki ishlar xodimlari uyimizga kelib, sharoitimiz bilan yaqindan tanishdi, — deydi «Istiqlol» mahallasida yashovchi Turg'unoy Karimova. — O'g'lim ishsiz ekanini aytganimizdan keyin uning qiziqishlari o'rganildi va mebel ishlab chiqarish korxonasiga ishga joylashtirildi. Hozirda oyligi yaxshi, oilaviy sharoitimiz ancha yaxshilandi.

Bugungi kunda tuman olib borilayotgan ishlar tasodifiy emas, balki puxta rejalashtirilgan va uzoqni ko'zlagan chora-tadbirlar samarasidir. Aholi bilan yuzma-yuz muloqot qilish, har bir insonning muammosini eshitish va unga yechim topish kabi oddiy, biroq ta'sirchan usullar orqali sezilarli natijalarga erishilmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, xavfsiz va osoyishta muhitni yaratish bu shunchaki shior emas. U izchil mehnat, to'g'ri yondashuv va inson manfaatlariga qaratilgan e'tibor natijasida yuzaga keladi. Izboskan tumani misoli esa bu yo'nalishda boshqa hududlar uchun ham amaliy namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.



Profilaktika inspektorlari – kapitan Nurbek Mamajonov va kapitan Farhodbek Qahramonov.

yurib, aholi bilan muloqot qildi, muammolarni aniqladi. Shu jarayonda ko'plab masalalarning asosida ishsizlik yotgani ma'lum bo'ldi. Shuning uchun asosiy e'tibor bandlikni ta'minlashga qaratildi. Jumladan, ijtimoiy reyestrda turgan 1771 nafar xotin-qiz ish bilan ta'minlandi. Bu esa nafaqat oilalar daromadini oshirdi, balki ijtimoiy barqarorlikni ham mustahkamladi. Bugun ilgari xavfli deb baholangan mahallalarda jinoyatlar qayd etilmayapti.

Izboskan tajribasi yana bir muhim xulosani tasdiqlaydi: muammoga faqat uning oqibatlarini orqali emas, balki ildiz sabablari orqali yondashish zarur. Agar in-



Tuman IIB Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi boshlig'i, mayor Azamatjon Jonjigitov profilaktika inspektori, katta leytenant Azizbek Olimov bilan.

gatorida qayd etilgan edi. Bu esa mas'ullar oldiga aniq vazifalarni qo'ydi. Qisqa fursatda vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish oson kech-

yatni olaylik, — deydi tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik Muhridin Rahmonov. — Ilgari bu yerda joylashgan 12 ta mahallaning 4 tasi «sa-

Bu qiziq!

«QAYTA TIRILGAN» IZQUVAR

Adabiyotda detektiv janri XIX asrning 2-yarmida paydo bo'ldi. Unga amerikalik adib Edgar Po o'zining «Morg ko'chasidagi qotillik» hikoyasi bilan asos soldi. Shundan so'ng ushbu janr nihoyatda ommalashib ketdi. Charlz Dikens, Emil Gaborio, Uilki Kollinz va boshqa yozuvchilar ushbu yo'nalishda barakali ijod qilishdi. Ularning asarlarida mohir izquvarlar ustasi farang jinoyatchilarning qilmishlarini yanayam ustalik bilan fosh qilishardi. Faqat izquvarlar bir qolipda bo'lib, bir-biriga o'xshab qolardi.

Konan Doyl boshqa adiblardan farqli o'laroq, yorqin izquvar obrazini yaratishga qaror qildi. Bu obraz adolatparvar, olijanb inson sifatida o'quvchilarning nafaqat hurmatini, balki mehrini ham qozonishi kerak edi. Uni yaratishda Artur Konan Doylning hamkasbi doktor Jozef Bell prototip bo'lib xizmat qildi. Adib uning mayda-chuyda, bir qarashda arzimadek tuyulgan jihatlaridan kelib chiqib, insonning fe'l-atvori, kasb-kori, turmush tarzini tasvirlab berishga qoyil qolardi.

Yozuvchi Sherlok Xolms haqidagi birinchi povestini 1886-yilda yakunladi. Ammo noshirlar uzoq vaqt asarni chop etishni xohlashmadi. Sababi detektiv asarlar juda ko'payib ketgandi. Nihoyat 1887-yildagina adib povestini chop etishga muvaffaq bo'ldi. Faqat buning uchun mualliflik huquqidan nashriyot foydasiga voz kechishiga to'g'ri keldi. Keyinroq noshirlar mazkur asarni qayta-qayta nashr qilib, katta foyda ko'rishdi.

1890-yilda Angliya va AQShda bir vaqtda Xolms haqida ikkinchi povest bosmadan chiqdi. Kitob qo'lma-qo'l bo'lib ketdi. Kitobxonlar va «Strand» jurnali olijanob izquvarning ajoyib-u g'aroyib sarguzashtlari haqida yangi hikoyalar talab qilishardi. Jurnalning adadi 200 mingdan 500 ming nusxaga yetdi. Konan Doyl ushbu nashrning eng mashhur muallifiga aylanib, har bir hikoyasi uchun 50 funt olardi. Bu o'sha davrda misli ko'rilmagan qalam haqi (gonorar) edi.

Nihoyat 1991-yilda Sherlok Xolms haqidagi hikoyalari tufayli boyib ketgan adib o'zining Londondagi kamdaromadli shifokorlik faoliyatini to'xtatib, o'zini butunlay badiiy ijodga bag'ishladi. 1893-yilda ijodkor qahramonining mardlarcha halok bo'lishi tasvirlangan «Xolmsning so'nggi ishi» hikoyasini e'lon qildi. Uning maqsadi bundan keyin tarixiy romanlar yozish edi. Ammo ming-minglab ashaddiy muxlislarining talablari ostida Sherlokni «tiriltirish»ga majbur bo'ldi. To 1907-yilgacha adibning millionlab detektiv ishqibozlarining sevimli qahramoni haqidagi yangidan yangi hikoyalari e'lon qilinib turildi.

Bobomurod TOSHEV
tayyorladi.



MA'RIFAT BO'STONI

YORDAM

Yoshi saksondan sakrab o'tgan kasalmand, qaddi egik qariya biror olijanob yo'lovchining yordami bilan serqatnov ko'chadan o'tib olish ilinjida tevarakka jonsarak ko'z yugurtib turardi.

– Assalomu alaykum, amaki, – deb salom berdi nogoh qarshisida paydo bo'lgan o'spirin.

Qariya g'oyat ajablanganidan alik olishni ham unutib bolaga tikildi.

«Amaki?!»

Ha, u behuda lol qolmadi. Mana, salkam o'ttiz yildan beri quloqlari «otaxon», «bobojon» degan atamalarga ko'nikkan edi. O'spirinning kutilmagan murojaatidan uning egik qaddi biroz rostlanganday bo'ldi.

– «Amaki» dedingmi? – qayta so'radi qariya.

– Ha, amakijon, – dedi bola go'yoki iltijoli tikilib, – mashinalar qatnovidan qo'rqaman, shunday kasalligim bor, iltimos, ko'chani kesib o'tishimga yordam bering.

– Xo'p, – dedi qariya va shu barobarida ko'zlari ravshan tortib, qo'l-oyoqlari te tiklashganday bo'ldi.



O'spirin qandaydir sirli kulimsirab cholni qo'ltiq lab oldi.

«Sho'rlik, – o'yladi qariya serqatnov yo'lni kesib o'tisharkan, – shugina yoshidan g'alati kasalga chalinibdi-ya?! Ming bor shukr, menda unday karohat yo'q...»

Xayollar og'ushidagi otaxon o'zi bola yetovida borayotganini aslo payqamadi. Ammo ayni paytda uning ruhi tetik, vujudi yengil, ko'z oldi yorug' edi.

Lugmon BO'RISON.

HOZIR-CHI?..

Usmoniyilar davlati davrida:

– deraza oldida sariq gul turgan bo'lsa, bu uyda kasal kishi bor, uy oldida va, hattoki, bu ko'chada shovqin-suron qilma, degan ma'noni bildirgan;



– deraza oldida qizil gul turgan bo'lsa, bu uyda turmushga chiqish yoshiga yetgan qiz bor, uy oldidan o'tayotganing-


da gap-so'zingga e'tiborli bo'l, qo'pol so'zlarni gapirma, degan ma'noni anglatgan;

– eshik ustida ikkita to'qmoq bo'lardi. Biri yo'g'on, ikkinchisi

ingichka. Kelgan kishi ayol bo'lsa, eshikni ingichka to'qmoq bilan taqillatar va eshikni xonadon sohibasi ochar-di. Agar erkak kishi bo'lsa, yo'g'on to'qmoq bilan taqillatar, xonadon sohibasi eshikni parda bilan to'sib ochar-di;

– yo'lda kichiklar kattalarning oldiga tushib yurmas edi;

– yigitlar kelishilgan, unashirilgan yoki yoqtirgan qizlar bilan uchrashuvga borganlarida hadya sifatida oyna olib borishardi. Bu: «Senga o'zingdan yanada go'zalroq beriladigan hadya yo'q», degani edi.



MEHR

Ayol bozorda manti pishirib sotadi. Turmush o'rtog'i bir qizni qutqaraman deb, o'zi yomonlar domiga tushib, qurbon bo'lgan. Mushtipar qornida bolasi bilan qolavergan. Yodgora qizi hozir ancha katta bo'lib qolgan. San'at markazida o'qiydi.

Bir kun yomg'ir shiddat bilan yog'a boshladi. Ayol narsalarini yig'ishtirib, do'kondan soyabon sotib oldi. Qizi o'qiydigan san'at markazi eshigi oldiga borgan, kiyimlariga qarab, ichkari kirishga ikkilandi. Yo'qchilik tufayli qizining tengdoshlari oldida izza bo'lishidan xavotirlandi. Bino hovlisiga chiqib, dars tugashini kuta boshladi.

Qizi ko'rinishi bilan mamnun qo'l silkidi. Biroq qizi uni ko'rmaganga olib, daraxt ortiga berkindi. Bir ozdan so'ng sekin mo'raladi. Ona qizini xijolatga qo'ymaslik uchun o'zi uni ko'rmaganga oldi va ildam qadamlar bilan ortga qaytdi.

Bir oydan so'ng Ona qizi o'qiydigan san'at markazidan talabalar ko'rgazmasiga taklifnoma oldi. Bordi. Devorga osib qo'yilgan suratlarini bir-

bir ko'zdan kechirarkan bir portret oldida to'xtab qoldi. Uning tagiga «Dunyodagi eng go'zal ayol!» deb yozilgandi. Yog'ayotgan yomg'ir, soyabon ko'targan, unga belangan fartuk taqqan, eski tuflari kiyib olgan, kimnidir intiq kutayotgan ayol tasvirlangan edi unda.



Rasmni ko'rayotgan Onaning ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi. Shu payt yoniga qizi keldi. Uning ko'zlarida farzandlik mehri balqib turardi. «O'shanda sizning mana shu go'zalligingizni daraxt panasida turib yuragimga muhrlagandim, oyijon!», dedi qizi sekingina qaynoq bag'riga bosh qo'yib...

MUSHTARIY.

RETSEPT

– Do'xtir, menga yordamingiz kerak!

– Shikoyatingiz nimadan?

– Ko'nglim g'ash, bezovtalik qiynayapti. Bir dunyo qiladigan ishlarim bor, lekin hech ulgurolmayapman. Shunga asabiylashib...

– Bu ishlarni boshqa birov qilolmaydimi? Yoki birontasi yordam bersa-chi?

– Yo'q, ularni faqat o'zim uddalay olaman. Boshqasi eplashiga ko'zim yetmaydi.

– Sizga bir retsept beraman. Unga to'liq amal qilsangiz, davo topasiz.

– «Ikki soat sayr qilish va haftada yarim kunni qabristonda o'tkazish». Do'xtir, sayrni-ku tushundim, lekin qabriston nega kerak?

– Qabristonga borib, mozorlarga qarang. U yer o'zini hammadan kerakli deb bilgan odamlar bilan to'la. Ular «faqat mengina qila olaman», deb o'ylagan ishlarini boshqalar davom ettirayotganiga guvoh bo'lishapti...

Sahifani Adolat FAYZIYEVA tayyorladi.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
podpolkovnik
Xurshidbek RO'ZIYEV

Bosh muharrir
o'rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir
Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Adolat FAYZIYEVA
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:
71-231-33-88;

Obuna masalalari
bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 1076.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
49764 nuxxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.